

XUSH KELIBSAN YURTIMIZGA,
QADR'DON NAVRO'Z!



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Postda На посту



2025-yil 20-mart
payshanba

№ 12 (4706)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

«НАВРЎЗ» НИНГ ЖОНКУЯР ОҚСОҚОЛИ

Ички ишлар органлари фахрийси, истеъфодаги капитан Равшанбек Ёкубов училдан бери Ҳазорасп туманидаги «Наврўз» маҳалласи раиси лавозимида фуқаролар бандигини таъминлаш, аҳолининг ичимлиқ суви, табиий газ, электр энергиясига бўлган эҳтиёжини қондириш, ҳудудни ободонлаштириши масалаларига алоҳида эътибор қаратиб келмоқда. Нотинч, низоли оиласлардаги салбий ҳолатларни яхшилаш, муаммоларга ечим топишда унга профилактика инспектори, катта лейтенант Шарифбой Кутлиев, ҳоким ёрдамчisi Ҳамидэсон Ҳўжаев, ёшлар етакчisi Темурбек Мақсадов, хотин-қизлар фаоли Зайнура Кенжасева, маҳалла фаолларидан Иброҳим Бекмуродов, Мехрибон Абдуллаева, Ҳусинбой Давлетов, Орзигул Эгамбердиевалар яқиндан ёрдам беряпти. Ҳамжихатликда амалга оширилган сабый-ҳаракатлар натижасида маҳалла «яшил» тоифага киритилди.

(Давоми 21-бетда.)



ULAR HAR JOYDA HOZIR

Samarqand viloyati. Har bir osoyish-talik posboni navbatchilikka yoki xizmatga kirishar ekan, shahar, tuman, mahalla tinchligi uning kasbiy mahoratiga bog'liq ekanini yaxshi tushunadi.

Patrul-post xizmati xodimlarini hamma joyda uchratish mumkin. Ularning sa'y-harakatlari bilan ko'plab noqonuniy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklarning oldi olinyapti. Yil boshidan buyon xizmat xodimlari boshqa huquq-tartibot organlari bilan birgalikda 66 ta jinoyatni fosh etgan bo'lib, shundan 47 tasi PPX xodimlari tomonidan ochilgan. Ular giyohvandlik vositalari bilan bog'liq 5 ta holat, 27 nafar qidiruvda bo'lgan va 3 nafar bedarak yo'qolgan shaxslarni topishga muvaffaq bo'lishgan.

Suratda: viloyat IIBJXXJTSB PPX batalyonini 2-otryadi komandiri, mayor E. Shadmanov, bo'linma komandiri, safdor J. Absalamov va inspektor, safdor A. Aralovlar.

NAVRO'ZNING BOLALARI



Har bir go'dak, inson bola si o'z ismi bilan dunyoga keladi. Yangilanish fasli bahorning teng kunligi – 21-mart, yangi kun ma'nosini beruvchi Navro'zda tug'ilgan ko'plab chaqaloqlarning taqdiri ham shunday.

Turdimat aka ham 1980-yilda tug'ilgan dilbandiga Navro'zbek deya ism qo'yan. Sobiq ittifoq davrida bu bayramning nomini qoralashgacha borilgan. Hatto bayram sanasini mart oyining oxiriga belgilab, nomi «Navbahor» deb ataldi va buni xalqning ongiga singdirishga harakat qilindi. Bu ismni qo'yanlar ham alohida nazoratga olinib, hatto uni o'zgartirishgacha borilgan. Ammo

Turdimat aka qo'rwmadi. O'g'liga shu ismni qo'yishga jazm etdi. Podpolkovnik Navro'zbek Xidiraliyev hozirda Yangihayot tumani IIOFMB 4-sonli IIB Navbatchilik qismi katta inspektor-navbatchisi. 23 yillik faoliyati davomida sohaning turli yo'nalishlarida xizmat qildi.

– Ismning inson hayotiga ta'siri bor, – deydi lavhamiz qahramoni. – Biror muammoli vaziyat yuzaga kelsa ham, tushkunlikka tushmayman, uni hal qilish chorasini izlayman. Yana shuni aytishim mumkinki, og'ir yo'qotishlar va tushkunlikka tushgan vaqtarda ham, faqat oldinga intilganman.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



Navro'z ayyomi Uchqo'rg'on tumani IIB huzuridagi Tergov bo'linmasi tergovchisi, kapitan Olimbek Mamajonov uchun qo'shaloq bayram. Sababi, Olimbek 21-mart sanasida tavallud topgan.

U ichki ishlardan organlarda faoliyat boshlagandan buyon tug'ilgan kunini uyda yaqinlari davrasida o'tkaza olmaydi.

– Bayramni xotirjamlikda o't-kazayotgan yurtdoshlarimning kayfiyati, ular ko'zidagi quvonchni ko'rib, qalbimda g'urur va iftixor tuyaman. Garchi topshiriqlar ko'p, vaqt tig'iz bo'lsa-da, hamkasblarim tabriklashni unutishmaydi, – deydi Olimbek.

Lavhamiz qahramonining tashabbusi bilan o'tgan yil 5 ta, yil boshidan buyon esa 2 ta jinoyat fosh etildi. Yaqinda «Elatan» mahallasida yashovchi X.X. ning xonadonidan ikki bosh qo'y o'g'irlab ketilgan. Hodisa joyiga yetib borgan kapitan O. Mamajonov o'sha tarafdagи barcha kuzatuv kameralarini tekshirib ko'rdi. Ter-govchining e'tiborini bir avtomashinaning qayta-qayta kuzatuv kamerasiga tushib qolgani tortdi. Mazkur avtouloving ma'lumotlari olinib, uning egasi aniqlandi. Jinoyat izini qidirib borgan xodimni ko'rib, fuqaro kalovlanib qoldi. Mashina saloni tekshirilganda, unda qo'y yungi topildi. O'sha kuniyoq qo'y bozorga olib borib sotib yuborilgani ma'lum bo'ldi. Mazkur holat bo'yicha tegishli hujjalalar rasmiylashtirilib, o'g'rilik qilgan fuqaroga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,
o'z muxbirimiz.
Namangan viloyati.

- **Navro'zbek Gayratdinov 2007-yil 21-martda Nukus shahrida tug'ilgan. 2023–2024-o'quv yilidan boshlab IIIV Qoraqalpoq akademik litseyida ta'lim olyapti. U o'qishga qiziqlishi, odob-axloqi, talabchanligi bilan o'z tengdoshlariga namuna sanaladi. Litseyda o'tkazib kelinayotgan har xil tadbirdarda, ko'rik-tanlovlardada faol qatnashib, o'quv yili davomida barcha fanlardan yaxshi baholarga o'qimoqda.**
- Navro'zbek tarix, ingliz tili, huquq fanlariga juda qiziqadi. Sportning boks turi bilan shug'ullanadi. San'atga qiziqlishi o'zgacha bo'lib, dutor chalishni yaxshi ko'radi va bir necha milliy ashulalarni ijro eta oladi. Yosh kitobxon fan to'garaklarining faol a'zosi.
- Kelajakda Navro'zbek Gayratdinov Vatan tinchligi yo'lida xizmat qiladigan sadoqatli, jasur inson bo'lib yetishiga shubha yo'q.

Amangeldi SAIMBETOV,
201-guruh kuratori.



**1993-yil
21-martda Romitan tumanida tug'ilgan safdar Navro'z Ne'matov baxtli insonlardan biri.**

Bolaligidan intiluvchan va harbiy kiyimga ishtiyoqi baland bo'lgan Navro'z, 2014-yili viloyat IIB PPX batalyonida xizmatni boshlagan.

Halol xizmati, kasbiy mahorati tufayli kasbdoshlari ichida obro'-e'tiborga erishgan Navro'z Ne'matov ustozlaridan, hamisha minnatdor. Hozirgi kunda viloyat IIB JXX JTSB Karantin tadbirlarini ta'minlash guruhi xodimi vazifasida xizmat qilib kelmoqda.

Fuqarolar va hayvon o'rtasidagi ekzotik kasalliklarning oldini olish, bozorlardagi oziq-ovqat mahsulotlarini aholiga sifatli yetkazishni ta'minlashda jonbozlik bilan xizmat olib boryapti.

– Qadim-qadimdan Navro'z xolis niyatli kishilarning sevimli ayyomi bo'lib kelgan. O'sha kunlarda hatto urush-janjallar ham to'xtagan, gina-kuduratlar kechirib yuborilgan. Men



ana shunday yangilanish ayyomida, har bir yurakdan muhim joy olgan quvonchli kunlarda tug'ilganimdan baxtiyorman, – deydi lavhamiz qahramoni. – Har yil qo'shaloq bayramni uyda, oilam davrasida xursandchilik bilan o'tkazaman. Turmush o'rtog'im milliy taomlarimizdan pishirib, dasturxonimiz ko'runga ko'r qo'shsa, men farzandlarimga milliy o'ynlarni o'rgatib, kun o'tganini bilmay qolamiz.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.
Buxoro viloyati.

► SHOGIRDLAR USTOZI HAQIDA

KAMOLIMIZDA HISSASI BOR

Men va yana men kabi ko'plab ichki ishlar organlari tizimida xizmat qilayotgan ayol xodimalarning mashaqqatli sohada bir tekisda ishlab ketishi, shu bilan birga, hayotda o'z o'rnikimizni topib, baxtli oilaning baxtiyor bekasi bo'lishimizda hech qachon maslahat hamda ko'maklarini ayamagan ustozim, iste'fodagi podpolkovnik Nasiba Turg'unovadan bir umr minnatdorman.

... 2019-yili Prezidentimiz tashabbusi bilan ichki ishlar organlarida xotin-qizlar masalalari bilan shug'ul-lanuvchi lavozim joriy etilgach, Namangan viloyati IIB Huquqburzaliklar profilaktikasi boshqarmasi boshlig'ining o'rnbosari – Xotin-qizlar masalalari bo'yicha bo'lim boshlig'i lavozimiga tajribali va

dag'dag'a qilib kirib keldi. Nasiba Turg'unova bosiqlik bilan go'zal muomala qilib himoya orderi berishdan maqsad oilani saqlab qolish kerakligini, oila muqaddas ekanini juda chiroylig misollar bilan tushuntirib berganki, jahl otiga minib kelgan fuqaro muomalasidan uyalib qo'li ko'ksida, kechirim so'rab chiqib ketgan. Eshitishimiz-



malakali kadr Nasiba Turg'unova tayinlangan edi. Men o'sha paytda opa bilan birga ishlardim.

Nasiba opa qog'li, dono, talabchan va qat'iyatl bo'lib, biz – shogirdlariga bilmanlarimizni o'rgatishdan hech qachon erinmasdi. O'z kasbini juda yaxshi ko'rар, hujjatlar badastir bo'lma-guncha ish stolidan siljimasdi. Fidoyilik bilan namuna ko'rsatib ishladi, ko'p fazilatlaridan barchamiz ibrat oldik.

Ustoz xizmat faoliyati davomida biror marta intizomiy jazoga tortilganini eslolmayman. Deyarli har bayram arafasi vazirlik va boshqarmaning tashakkurnoma, pul mukofotlari bilan taqdirlanganlarida havas-la qarardik.

Bir voqeа sira yodimdan chiqmaydi: bir kuni himoya orderi olgan ayolning turmush o'rtog'i norozi bo'lib,

cha, erkak o'sha kuniyoq ayolining oldiga borib, kechirim so'rab, oilasini ajralishdan saqlab qolibdi.

Bu kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin. O'shanda kasbimizda mahoratli nutq egasi bo'lish ham muhimligini anglab yetgandim. Yillar davomida o'qib o'rganganlarim ham, ko'rib uqqanlarim ham ko'p.

Nasiba Turg'unova bugungi kunda pensiyada oila davrasida. Danagidan mag'zi shirin degandek, o'g'li Javohirning shirindan-shakar ikki farzandining tarbiyasi bilan mashg'uul.

«Bizga ham sizning yo'linizni bersin, ustoz! Doim shogirdlar hurmati, farzandlar ardog'ida yashang», deb tilak bildiramiz.

Gulnoza RAHMATULLAYEVA,
kapitan.

Namangan viloyati.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdaуз



www.instagram.com/postda_uz

TAYINLANDILAR



**Podpolkovnik
Abdurahmonov
Ibrohimjon Otajonovich**
IIV Moliya va moddiy-teknika ta'minoti
departamenti boshlig'i lavozimiga



**Polkovnik
Shermuxamedov
Abdumajid Mavlyanovich**
Xorazm viloyati Ichki ishlar boshqarmasi
boshlig'i lavozimiga



**Polkovnik
Djabarov
Sanjar Buranovich**
Andijon viloyati Ichki ishlar boshqarmasi
boshlig'i lavozimiga



**Podpolkovnik
Haydarov
Farrux Ubaydullayevich**
Sirdaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi
boshlig'i lavozimiga

► NAVBATCHILIK QISMI

ISH TO'XTAMAYDI

Ichki ishlar organlarida Navbatchilik qismi xodimlari tun-u kun aloqa vositalari oldida turib, bo'layotgan voqeа va hodisalar, aholidan tushayotgan arizalarni qabul qilib, tegishli choralar ko'rishadi. Ayniqsa, sodir etilgan jinoyatlarning «issiq izida» ochilishi va turli ko'ngilsizliklarning oldi olinishida ularning xizmati katta ahamiyatga ega.

Soha xodimlari o'z vazafalarini sidqidildan bajarib, sodir etilgan jinoyatlarni «issiq izida» fosh qilishda ularning hissasi katta bo'lyapti. O'tgan ikki oy mobaynida, fuqarolar tomonidan 1023 taga yaqin ariza va xabarlar berildi. Bularning barchasi yuzasidan o'z vaqtida tegishli choralar ko'riliishi ta'minlandi. Shu bois ham mazkur ariza hamda xabarlar asosida olib borilgan tezkor surishtiruv va tergov tadbirdirlari natijasida 31 ta jinoyat ochildi.

– Tumanimiz xavfsizligini ta'minlash, huquqburzaliklar va jinoyatchilikning barvaqt oldini olish maqsadida viloyat IIB JXX PPX batalyoni tomonidan 2 ta avtopatrul, 1 ta piyoda patrul, 2 ta yo'l harakati xavfsizligi xodimlari va 4 nafardan yoshlar hamda jamoatchilik vakillaridan iborat guruuhlar faoliyat olib bormoqda. Bundan tashqari, «Mening mahallamda jinoyat sodir etilmasligi kerak» shiori ostida 45 ta jamoatchilik maskanlari



tashkil qilinib, ichki ishlar organlari xodimlari hamkorlikda kun-u tun xizmatda. Shuningdek, navbatchilik qismida tuman hududida joylashgan beshta bank muassasasi, muhim toifalangan obyektlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatilgan hamda doimiy ravishda axborot almashib turiladi. Tuman markazi chorrahalarini hamda aholi gavjum joylari to'liq kameralashtirilib, navbatchilik qismiga o'rnatilgani va doimiy ravishda kuzatib kelinayotgani ham o'z samarasini bermoqda, – deydi Romitan tumani IIB boshlig'i o'rnbosari, kapitan Jasur Rasulov.

Qisqasi, navbatchilik qismida xizmat jarayoni to'xtamaydi. Bu bilan xodimlar hududda tinchlik, osoyishtalikni saqlash, jinoyat va huquqburzaliklarning barvaqt oldini olishga munosib hissa qo'shishmoqda.

**Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.**
Buxoro viloyati.

Qadimda Mavarounnahr deb atalgan bepoyon o'lkamiz duniyoviy va diniy ilmlarda yuksak cho'qqilarni zabit etgan yuzlab zabardast allomalar yetishib chiqqan ko'hna zamindir. Biroq bir yarim asr davom etgan mustamlaka davrida xalqimiz ulug' ajodalr merosidan mosuvu bo'lib qoldi. Hatto ba'zi bir buyuk mutafakkirlarimiz xalq xotirasidan o'chib ketdi.

ISTIQLOL INKISHOFI

Insonning ma'nnaviy dunyosini boyitmay turib, ko'zlangan natijaga erishib bo'imasligi tarixdan yaxshi ma'lum. Istiqlol bergan imkon tufayli keyingi yillarda ma'nnaviy-ma'rifiy merosimizni tiklash, o'rganish, hayotimizga tatbiq etish va dunyoga targ'ib qilishga e'tibor kuchaydi.

Davlatimiz rahbari boy ma'nnaviy-ma'rifiy merosimizni tadqiq etib, keng afkor om-maga yetkazadigan markazlarni ta'sis etmoqda, ulug' ajodalrimizning xoki abadiy qo'nim topgan muqaddas qadamjolarni tiklab, atrofini obodonlashtirmoqda. Toshkentda O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi, Islam sivilizatsiyasi markazi, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Samarqandda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi va Hadis ilmi oliy maktabi, Termizda Imom Termiziy ilmiy-tadqiqot markazi ochilgani bu fikrning yorqin dalilidir.

Ochiq e'tirof etish kerakki, xalqimiz Buxoriy, Moturidiy, Termiziy nomlarini eshitgan, lekin ularning hayoti va ilmiy jasoratidan mutlaq bexabar edi. Dunyo musulmonlarining aksar qismi e'zozlab ulug'-laydigan, nomlarini chuqur hurmat bilan tilga oladigan allomalar o'z ona Vatanida e'tibordan chetda qolib kelayotgan edi. Yurtimizdan yetishib chiqqan mutakallim olim Abu Mansur Moturidiy haqida ham xalqimiz hech qanday ma'lumotga ega emas edi. Vaholanki, Samarqandda yashab ijod etgan olim yaratgan moturidiya ta'limoti o'zi yashagan davrdan boshlab uzoq vaqtgacha Mavarounnahr ma'nnaviyatining asosiy tamoyillarini belgilab kelgan.

HIDOYAT BAYROG'INING TIKLANISHI

Imom Moturidiyning to'liq ismi Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hanafiy al-Moturidiy as-Samarqandiy bo'lib, u Samarqand yaqinida joylashgan Moturid qishlog'ida tug'ilgan. Imom Moturidiyning tavalludiga doir ma'lumotlar biror manbada ko'rsatilmagan. Lekin uning ustozlari va yaqinlarining vafot etgan sanasiga qarab, uning taxminiy tavallud yilini belgilash mumkin. Shu usul bilan hisoblaganda, Imom Moturidiy taxminan 230/845 yoki 240/854-yillar atrofida tavallud topgan.

Manbalarda olimga o'nlab unvonlar berilgan, biroq ular orasida eng mashhuri «hidoyat imomi» va «hidoyat bayrog'i» degan unvon-

lardir. Olimlarning ta'kidlashicha, Moturidiy tortishuvda olov kabi shiddatl mutakallim hamda musulmonlar aqidasini astoydil himoya qiluvchi shaxs bo'lgan. U betakror ilmi bilan adashganlarning shuhalariga raddiya berar va sof islam aqidasini o'ziga aralashtirib yuborgan bid'at g'oyalardan tozalar edi. Zero, insoniy fikrlarning bilimdoni

keyinchalik Samarqand kalom maktabi doirasidan chiqib, butun islam olamiga tarqaldi va sunniylikdag'i ikki yirik maktabning biri sifatida tanildi. O'sha davrdagi va undan keyin yashab o'tgan olimlarning e'tirof etishicha, Moturidiyning ilmi tufayli aqida ilmida to'g'ri yo'ldagi odam bilan noto'g'ri yo'ldagi odam farqlanar edi.

MOTURIDIYNING MA'NAVİY-MA'RİFIY MEROSI

Imom Moturidiyning «Tavhid kitobi», «Moqolot kitobi», «Shariatlar manbayi», «Munozara kitobi», «Qur'on ta'villari», «Mo'taziliyarning

o'ziyoq Abu Mansur Moturidiy va uning ilmiy merosi haqida aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

«Qur'on ta'villari» moturidiya ta'limotida ma'lum va mashhur bo'lib, moturidiya ulamolari nazida, boshqa biror avvalgi va keyingi tafsirlar unga tenglasha olmagan. Mazkur kitob bizga to'liq holda yetib kelgan bo'lib, dunyoning ko'plab qo'lyozma fondlarida nodir qo'lyozma nusxalari mavjud. Ushbu asarning eng qadimiy nusxasi Makkadagi «Maktabatu-l-Harami-l-Makkiy» kutubxonasi qo'lyozmalar fondida saqlanadi. Mazkur asar bo'yicha bir necha bor tadqiqot ishlari olib borilgan va u nashr etilgan.

Olimlarning tan olishicha, ushbu kitob allomaning boshqa kitoblari orasida tili va uslubi jihatidan eng oson va ravon o'qiladigan asar bo'lgani sababli moturidiya ulamolaring asosiy manbayi hisoblangan. Chunki mazkur kitob barcha chigalliklarni ochib beruvchi, inson qalbidagi shuhbali qora bulutlarni haydovchi asardir.

Moturidiyning eng muhim asarlaridan yana biri «Tavhid kitobi» bo'lib, uning asl nusxasi hozirda Kembrij universiteti qo'lyozmalar fondida saqlanadi. «Tavhid kitobi» olimning kalom ilmiga oid eng ahamiyatli asari hisoblanadi. Chunki unda Moturidiyning kalom ilmidagi aqidaviy qarashlari o'z aksini topgan. Shu tufayli bu asar moturidiylik ta'limotini bilishdagi eng asosiy manba sifatida e'tirof etilgan.

MASHHUR MUTAKALLIMMING QAYTISHI


Tan olish kerakki, Yevropa va Turkiya olimlari tomonidan kalom ilmi tarixiga oid ko'plab tadqiqotlar qilingan bo'lsa-da, XXI asr boshiga qadar Markaziy Osyo hududida

ushbu soha bo'yicha yetarli ishlari amalga oshirilmagandi. 2000-yil Imom Moturidiy tavalludining 1130-yilligi mamlakatimizda keng nishonlanishi ushbu sohada o'zbekistonlik tadqiqotchilarning faoliyati rivojiga sezilarli turtki bo'ldi.

Prezidentimizning 2020-yil 11-avgustdag'i «Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori sohoni yanada chuqurroq o'rganish, Imom Moturidiyning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish, moturidiylik ta'limotini xalqaro miqyosda targ'ib-tashviq qilish imkoniyatini yaratdi. Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan «Qur'on ta'villari» va «Tavhid kitobi» asarlarining o'zbek tiliga tarjima qilinishini esa mamlakatimizda moturidiylik ta'limotining yanada rivojlanish garovi sifatida baholash mumkin.

Temir QURBONOV,
filologiya fanlari nomzodi.

MOTURIDIY mo'tadillik va ma'rifat mezoni



bo'lgan Moturidiy o'zining ziyorligi va zakovati bilan boshqalar dan alohida ajralib turuvchi va ko'plab ilmiy fanlarni mukammal egallagan olim edi.

Imom Moturidiy 944-yilda Samarqandda vafot etgan va mashhur Chokardiza qabristoniga dafn etilgan. Shahar aholisi, ayniqsa, o'rta qatlama orasida mashhur bo'lgan ulamolar, jumladan, Moturidiyning safdosh va shogirdlari ham shu yerga dafn qilingan.

TO'G'RI YO'L KALITI

Abu Mansur Moturidiy yashagan davrda Mavarounnahrda to'g'ri yo'ldan adashgan turli guruh va firqalar ko'payib, ularning aksariyati imon-e'tiqod masalalari bo'yicha bahs-u munozaralar tufayli vujudga kelgan edi. Hanafiy mazhabini asoschisi Abu Hanifa ta'limotiga tayanib o'ziga xos kalom maktabini yaratgan Moturidiy ularning noto'g'ri fikrlariga asosli raddiyalar berdi. U asos solgan moturidiylik ta'limoti

**Davlatimiz
rahbaryning 2025-yil
14-martdag'i «Imom Moturidiy tavalludining 1155 yilligini keng nishonlash to'g'risida»gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida xalqaro ilmiy anjumanlar, tadqiqotchilar o'rtasida tanlovlardan asarlar nashri, badiiy film yaratish, Samarqanddagi majmuani obodonlashtirish va boshqa tadbirlar rejalashtirilgani esa kelgusida amalga oshiriladigan ishlarni ko'lami yanada keng ekanligidan dalolatdir.**

xom xayolini bayon etuvchi kitob», «Besh asosga raddiya», «Ka'biyning asosiy dalillariga raddiya Kitobi», «Ka'biyning fosiqlarning va'idiga bag'ishlangan kitobiga javob» kabi o'n beshta yaqin asarlari ma'lum bo'lsa-da, ularning aksariyati bizgacha yetib kelmagan. Uning ilmiy merosidan faqat «Tavhid kitobi» va «Qur'on ta'villari» asarlari saqlanib qolgan, xolos. Biroq shularning

■ Республика Каракалпакстан

Вдохновляя на успех



Состоялся VI форум «Уважение к женщине – ключ к счастливой семье». Организаторами мероприятия выступили отдел профилактики правонарушений СОБ МВД Республики Каракалпакстан и Шуманайский РОВД. В форуме приняли участие представители Жокаргы Кенеса Каракалпакстана, прокуратуры, а также ряда партнерских учреждений и организаций.

Этот форум проводится с 2020 года и уже прошел в Тахтакупырском, Чимбайском, Элликкалинском, Ходжейлийском и Канлыкульском районах. Его главная цель – укрепление роли женщин в обществе, создание безопасной среды и предотвращение правонарушений среди женщин.

Важной частью форума стало знакомство с деятельностью Гульмиры Жадигеровой – ремесленницы, которая помогает женщинам в организации ремесленной деятельности. Она представила национальные каракалпакские украшения и одежду, изготовленные вручную.

Кроме того, была презентована «Школа ремесленников» Алтынай Наубетовой, где обучают женщин, оказавшихся в сложной жизненной ситуации. В школе создаются ковры, национальная одежда, мягкие игрушки, одеяла из верблюжьей и овечьей шерсти, которые экспортируются в Японию, Германию, Афганистан и другие страны.

Старший инспектор по вопросам женщин отдела профилактики правонарушений СОБ Шуманайского РОВД старший лейтенант Кумисай Бекманова отметила:

– Цель проведения форума в нашем районе – продемонстрировать, как ре-

месленники развивают свою деятельность, ознакомить участников с их возможностями. Это способствует пропаганде передового опыта среди соотечественниц, помогая им обрести надежный источник дохода. Обеспечение занятости – один из ключевых факторов в предотвращении правонарушений и преступлений.

Подобные форумы не только укрепляют роль женщин в обществе, но и способствуют их социальной адаптации, экономической независимости и профилактике правонарушений.

Азamat ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.



Проверь свои знания

1. В каком ответе правильно указаны субъекты общественного контроля?

A) Граждане Республики Узбекистан, лица без гражданства, иностранные граждане, органы самоуправления граждан. Общественный контроль может осуществляться также СМИ, зарегистрированными в установленном законодательством порядке.

B) Органы самоуправления граждан, СМИ, зарегистрированные в установленном законодательством порядке. Общественный контроль может осуществляться также независимыми журналистами и блогерами.

B) Граждане Республики Узбекистан, органы самоуправления граждан, ННО, СМИ, зарегистрированные в установленном законодательством порядке. Общественный контроль может осуществляться также общественными советами, комиссиями и иными общественными организационными структурами в соответствии с законодательством.

Г) Нет правильного ответа.



2. Каким документом утвержден Кодекс профессиональной культуры и служебной дисциплины сотрудников ОВД?

A) Постановлением Президента Узбекистана «О дополнительных мерах по преобразованию органов внутренних дел в народную профессиональную структуру и ориентированию их работы на более тесное взаимодействие с населением» от 20 января 2023 г.

B) Постановлением Президента Узбекистана «О мерах по коренному совершенствованию порядка работы с кадрами органов внутренних дел и организации их службы» от 29 ноября 2017 г.

B) Постановлением Президента Узбекистана «О мерах по созданию безопасной среды и дальнейшему повышению эффективности системы раннего предупреждения правонарушений в махаллях Республики в 2025 году» от 3 января 2025 г.

Г) Указом Президента Узбекистана «О мерах по утверждению и реализации Концепции общественной безопасности Республики Узбекистан» от 29 ноября 2021 г.

3. Дисциплинарное взыскание, наложенное на сотрудника приказом, действует с момента его назначения в течение следующих сроков:

A) Замечание – шесть месяцев; выговор – девять месяцев; штраф в размере не более пятидесяти процентов от должностного оклада – один год; строгий выговор – один год.

B) Замечание – шесть месяцев; выговор – шесть месяцев; штраф в размере не более пятидесяти процентов от должностного оклада – шесть месяцев; строгий выговор – один год.

B) Замечание – три месяца; выговор – шесть месяцев; штраф в размере не более пятидесяти процентов от должностного оклада – девять месяцев; строгий выговор – один год.

Г) Нет правильного ответа.



Ответы на тесты ищите на страницах этого номера газеты.

DO'STONA ALOQALAR RAMZI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Fransiyaga tashrifi chog'ida mamlakat prezidenti Emmanuel Makron Yurtboshimizga fransuz fotografi Pol Nadarning XIX asr oxirida olingan

«Amir Temur darvozasi» fotosuratini sovg'a qildi (*chapdan 1-surat*). Quyida «Amir Temur darvozasi»ning o'sha davrdagi va hozirgi ko'rinishini e'tiboringizga havola etamiz.

KECHA



BUGUN



SOHA FIDOVISI

ER YIGIT – EL G'AMIDA

Toshkent viloyatining so'lim go'shalaridan biri bo'lmish Parkent tumanidagi «Kumushkon» mahallesi tabiatining go'zalligi o'zgacha. Uch mingdan ortiq aholi umrguzaronlik qilayotgan mahalla osoyishtaligini ta'minlash yo'lida, mana, 5 yillardiki, profilaktika inspektori, mayor G'ofur Begaboyev fidoyilik bilan xizmat qilmoqda.

O'tgan davr mobaynida hamkorlikda bandligi ta'minlanmagan fuqarolar ishga joylashtirilib, mahallaning deyarli barcha joylariga kuzatuv kameralari o'rnatildi. Shuningdek, tungi reydlar tashkil etilib, qonunbuzarliklarning oldi olindi. Natijada, krim-inogen hududlardan hisoblangan ushbu manzilda jinoyatlar soni keskin kamayib, avvaliga «sariq», keyin «yashil» toifadagi hududlar sirasiga kiritildi.

– Mahalla hududida 53 ta mehmon uyi tashkil etilgan, yana yuzdan ortig'i faoliyatini boshlash arafasida. Bu aholini ish bilan ta'minlash, natijada huquqbuzarlik va jinoyatchilikka barham berishda katta ahamiyat kasb etadi, – deydi mayor G'ofur Begaboyev.

Ichki ishlar organlaridagi 13 yillik faoliyatining barchasini profilaktika xizmatiga bag'ishlagan lavhamiz qahramoni ustoz, istefoda-



gi podpolkovnik Dilmurod To'rayevdan kasb sirlarini o'rganib, tajribasini boyitdi. Shuningdek, boks bilan yoshligidan shug'ullanib, sport ustaligiga nomzodlikni qo'liga kiritdi, kikboks bo'yicha esa II daraja sohibiga aylandi.

Hozirda turmush o'rtog'i Zulfiyaxon bilan 3 o'g'ilni voyaga yetkazayotgan mayor G'. Begaboyev xizmatdan so'ng farzandlarida kitobga bo'lgan mehrni kuchaytirish maqsadida ular mutolaa qilgan adabiyotlar bo'yicha fikr almashadi.

Mixli SAFAROV,
o'z muxbirimiz.
Toshkent viloyati.

СЕН – МАТОНАТ ТИМСОЛИ, ИБРАТ МАЁФИ!

Матонатли аёл ҳар қандай қийинчиликлар олдиди қаддини бүкмай, мардана кураша олади. Бундай кучли аёллар орамизда кўп. Улардан бири деновлик Дилором Йўлдошевадир. Иккийил олдин баҳтсиз ҳодиса туфайли иккала оёғидан ажралган бу аёл бугун тикувчилик қилиб, бошқаларга ибрат кўрсатмоқда.

Ўшанда далада ишлайди турмуш ўртоғига тушлик олиб борган Дилоромнинг ҳаёти бир зумда ўзгариб кетади. Умр йўлдоши у олиб келган овқатни ейиш учун соя жойга ўтади. Дилором бир қучоқ ўрилган буғдойни олиб комбайнга яқинлашади. Бу ишни бекор турмаслик учун қилганди. Ишлаб турган комбайнга буғдой солаётганида халатининг бир уни техниканинг темир тишлирига илиниб қолиб, уни тортиб кетади. Атрофда тушлик қилаётган ишчилар нима бўлганини тушуниб етгунича у икки оёғидан айрилиб бўлади. Операциядан сўнг ўзига келган аёл ўрнидан турмоқчи бўлади. Иккала оёғи кесиб ташланганини билгач эса...

Дилором шифохонадан чиққач, оёқсиз яшашга кўниколмайди. Ўзини жуда баҳтсиз ҳис қиласди. Турмуш ўртоғи Дилмурод Пардаевга соғлом аёлга уйланиш таклифини беради. Аммо у ҳеч қачон бундай қилмаслигини айтади.

Дилором секин-аста тақдир зарбасига кўника бошлайди. Овсини Адиба Пардаева уни суюиди, иккита рўзгор ташвишини ўз елкасига олади. Қариндошлар протез оёқ қўйдириши учун унга пул йиғиб беришади. Дилоромга протез оёқ қўйишиади. Лекин бу сунъий оёқлар ҳеч қачон ўз оёқларидек бўлмайди.

Шундай кунларнинг биринча унинг ҳаётида ўзгаришлар

шабадаси эса бошлайди. Сурхондарё вилоятининг Денов туманида яшовчи Дилором Йўлдошева Адлия вазирлиги ташаббуси билан йўлга қўйилган «Имкон» ижтимоий-хуқуқий лойиҳасининг қаҳрамонига айланади. У мазкур лойиҳа орқали ўзи қизиқсан соҳа – тикувчилик йўналишида билим ва малакасини оширади. Қонунчиликда белгиланган имтиёзлардан фойдаланиб, ўзининг тикувчилик цехини очади. Дастреб бир ўзи тикувчилик орқали ойига 1,5 миллион сўм даромад топ-

BBC 2024 йил учун дунёнинг 100 нафар илҳомлантирувчи ва таъсирили аёллари рўйхатини эълон қилди. Бу рўйхатда тинчлик бўйича Нобель мукофоти совриндори Надя Мурад, актриса Шэрон Стоунлар қаторида ўзбекистонлик тадбиркор Дилором Йўлдошеванинг ҳам номи қайд этилди. Бу қаҳрамонимиз учун ҳам катта хурсанд-чилик бўлди.

ган бўлса, лойиҳа кўмагида ўртacha даромади 20 миллион сўмга ошиб, 40 нафардан ортиқ шогирд етиширади.

– Уйимизнинг қурилиши битмагани учун турмуш ўрто-



ғимга ёрдам бергим келди, – дейди Дилором Йўлдошева. – Менга Параолимпиада ўйинларида иштирок этишни таклиф қилиб, голиб бўлсан пул берилиши ҳақида айтишди. Аммо бу гап онамга ёқмади. «Ярим жон бўлсанг ҳам, болаларингнинг ёнида бўл, уларга кераксан», деди. Шундан кейин тикувчилик билан шуғуланишини бошладим. Аммо тикув машинам жуда эски эди, субсидия асосида янги тикув машиналарини олдик ва эски ҳунарим билан шуғулланишини бошладим. Юзим ёруғ бўлиб, рўзгоримизга барака кирди. Шу аҳволда ҳам одамларга ёрдамим тегаётгани мени руҳлантириди.

Қаҳрамон аёл ҳақида «Матонат» номли ҳужжатли фильм ҳам яратилди. Фильмни кўрар экансиз, беихтиёр кўзларингизга ёш келади. Дилором опа каби тақдир зарбасига учраган одамларнинг оғриғи дилингизни ўртайди. Лекин уларнинг қандай мушкул вазиятга тушмасин, ўзини йўқотиб қўймаслиги, тоғдек иродаси, матонати олдидаги бош эгасиз.

– Мен ҳақимда фильм суратга олингач, кўп ўтмай, дунёнинг 100 нафар аёллари сафига қўшилганим ҳақидаги қувончли хабарни эшийтдим, – дейди Дилором Йўлдошева. – Мени кўргани жуда кўп одамлар келди. Мен ногирон эмасман, оёғим

бўлмаса ҳам қўлим бор, ақлхушим жойида. Шунисига ҳам минг шукр.

Ҳа, қаҳрамонимизнинг ўзиям, сўзиям шундай содда ва камтар. Бироқ бу камтарлик ортида кенг феъллик борлигини фаҳмлаш қийин эмас. 2024 йил 13 ноябрь куни Президентимиз фармонига кўра, Дилором Йўлдошева «Мардлик» ордени билан мукофотланди. Бу унинг матонатига берилган муносиб баҳо эди.

Аслида умримизнинг ҳар дами ғанимат, ҳаёт эканлигимизнинг ўзи бир мукофотdir. Дилором опа бу ҳақиқатни яхши англағани учун ҳам умид билан яшаяпти. Унинг умидлари эса бағрида униб-ўсаётган З нафар қоракўзи – фарзандлари билан бирга янаем бўй чўзяпти. Яратган, албатта, уни ҳали яна кўп тұхфалар билан сийлашига ишонамиз. Зоро, қаҳрамонимиз шунга муносибидир.

Феруза РАҲМОНҚУЛОВА,
ўз мухбиримиз.
Сурхондарё вилояти.



МАТОНАТ





Наши корреспонденты сообщают



Противодействие киберпреступности

НАМАНГАНСКАЯ ОБЛАСТЬ.

Сотрудники оперативно-розыскной службы УВД области провели информационное мероприятие на территории рынка «Сардoba».



В рамках мероприятия до граждан была доведена информация о распространенных в интернете мошеннических схемах, таких как кража персональных данных через вредоносные ссылки, привлечение к незаконным торговым платформам и т.д.

Специалисты предупредили граждан о необходимости быть бдительными при пользовании интернетом: не доверять сомнительным предложениям и не раскрывать свои данные посторонним лицам. В конце встречи сотрудниками были разданы буклеты, касающиеся тематики встречи.



«Яшил макон»

НАВОЙСКАЯ ОБЛАСТЬ.

В рамках общенационального проекта в Навбахорском районе сотрудниками ОВД заложен сад.

Посадка деревьев сегодня приобретает большее значение в условиях стремительного урбанистического развития.

Очередной этап проекта объединил сотрудников УВД области. В этот раз стражи порядка отправились в махаллю Коражон Навбахорского района, чтобы разбить сад на площади 4 гектара. 5000 саженцев декоративных и плодовых деревьев вскоре укроют землю зеленью и подарят тень и плоды.

Ясное весеннее утро стало идеальным временем для посадки. Прежде чем при-

ступить к делу, участники акции очистили территорию от мусора и выровняли почву. С учетом местного климата и состава земли были выбраны наиболее устойчивые породы деревьев.

Совместный труд приносит лучшие результаты. Нет сомнений, что через несколько лет этот сад станет не только украшением района, но и символом единства и солидарности. Ведь посаженные деревья – это послание будущим поколениям, знак заботы и ответственности.



Нет коррупции!

ДЖИЗАКСКАЯ ОБЛАСТЬ.

Сотрудники ОВД Фаришского района выявили преступную деятельность местного жителя Х. А. В ходе профилактического мероприятия было установлено, что он за вознаграждение в 200 тысяч сумов предоставил условия для интимных встреч между гражданами С. М. и Г. А.

На основании фактов против Х. А. возбудили уголовное дело. Однако следствие установило новые обстоятельства: помимо сутенерства, подозреваемый был причастен и к иному противоправному деянию.

Осознав серьезность обвинений, Х. А. попытался избежать ответственности с помощью взятки. Он предложил 7 миллионов сумов начальнику ОПП СОБ ОВД Фаришского района капитану Хайрулле Калонову.

Однако офицер остался верен долгам. Он разъяснил подозреваемому, что подкуп является уголовным преступлением. Несмотря на

это, Х. А. продолжил настаивать на своем.

В результате оперативной спецоперации преступник был задержан с вещественными доказательствами в момент передачи 500 долларов США и 600 тысяч сумов. Задержание проводилось в присутствии понятых.

Теперь помимо изначальных обвинений Х. А. придется ответить и за попытку дачи взятки должностному лицу. Этот случай еще раз доказывает, что любое проявление коррупции не остается безнаказанным, а честные сотрудники правоохранительных органов стоят на страже закона.



MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARSI

SAHNA – HAYOT KO'ZGUSI

(27-mart – Xalqaro teatr kuni)

Teatr miloddan avvalgi V asrda Yunonistonda paydo bo'lgan. Uning sof tomosha shaklida ko'rinishi dastlab qadimgi Sharqda yuz bergan. Hindiston, Markazi Osiyo, Xitoy, Indoneziya, Yaponiya, Koreya, Birma, Vyetnamda teatr tomoshalarining xilma-xil shakkllari yaratilgan.

Teatr san'atining turlari ko'p. Bular – drama teatri, opera, balet, musiqali drama, musiqali komediya, operetta, yosh tomoshabinlar teatri, qo'g'irchoq teatri, radio teatr, televizion teatr, estrada teatri, maydon teatridir. Teatr asarlarining asosiy janrlari: drama, tragediya, komediya. 1576-yilda aktyor Jeyms Berbij sahna namoyishlari uchun maxsus birinchi binoni qurgan. U shunchaki «teatr» deb nomlangan. Ko'p o'tmay boshqa teatrlar qurilgan, ular orasida «Globus» teatri ham bo'sh, u yerda Shekspirning ko'plab pyesalari sahnalashitirilgan.

Tomoshabinlar sahnaning oldi yoki atrofidagi chuqruda tik turgan yoki kabinetlarda o'tirgan. Bizning zamonaviy teatrimiz o'sha dastlabki engiz teatrlaridan kelib chiqqan. Ayniqsa, Rimda teatrning yangi shakl va turlari yaratildi. G'arbiy Yevropada teatr san'atining dastlabki namunalari sayyor aktyorlar, jonglyorlar ijodida, Rossiyada skomoroxlar faoliyatida yuzaga kelgan.

Uyg'onish davrida vujudga kelgan drama yangi shakldagi professional turning shakllanishiga zamin yaratdi. XVI asrdan opera, XVIII asr o'rtalaridan balet, XIX asr o'rtalaridan operetta mustaqil teatr turi sifatida rivojiana boshladi. Teatrning keyingi taraqqiyoti klassitsizmning keng yoyilishi bilan bog'liq.

XVIII asrda ma'rifatchilik oqimidagi teatr taraqqiy etdi. Aynan o'sha davrda u g'oyaviy va badiiy kurashlar maydoniga aylandi. Amir Temur davlati davrida teatr san'atida keskin yuksalish ro'y berdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Klavixolarning ma'lumotlaricha, bu davrda poytaxt – Samarcanda va boshqa nufuzli shaharlarda teatrlashgan tomosha-

lar uyushtirilgan. An'anaviy teatr va boshqa san'at tomoshalari, ayniqsa, Mirzo Ulug'bek davrida Movarounahrda, Husayn Boyqaro davrida Xurosonda taraqqiy topdi.

Teatr har bir davrda, hayotiy saboqlar beruvchi jonli vosita hisoblangan. Inson ma'naviyati yuksalishida ham uning o'rni bo'lakcha. Ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy «Teatr – bu ibratxonadir» deb bejiz ta'kidlamagan. Darhaqiqat, teatr ibrat va ma'naviyat maskani. Yoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltrish, ularda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish hamda bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda ham uning salmoqli roli bor.

Ya'ni, u insonga hayotiy saboq beradi. Binobarin, joylarda yoshlarni teatrlarga ko'proq jalb qilish, zamon qahramoni obrazi aks etgan spektakllarni ko'proq yaratish, qolaversa, huquqbazarlik va jinoyatchilikning ayanchli oqibatlarini kelajagimiz sohiblariga sahna asarlari orqali yetkazishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Negaki, hamma yoshlar ham



radi. Behbudiyning fikricha, ma'rifat uchun faqat maktab kifoya qilmaydi. Millat uchun oyna kerak, toki unda o'z qabohatini ham, malohatini ham ko'ra olsin. Mana shu haqiqat uni teatr tashkil etish, ular uchun asarlar yaratishga undagan. O'zbek dramaturgiyasining ilk namunalaridan biri sanalgan «Padarkush» asari shu tufayli yuzaga kelgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, teatrimiz hayotida ham yangi davr boshlandi. Istiqlol tufayli milliy merosga tayanib ijod qilish, milliy qadriyatlar, an'analarni tiklashga intilish jiddiy tus oldi. Bu davrda o'zbek teatrida ilg'or tendensiyalar, ijodiy izlanishlar ko'zga tashlanadi. Masalan, teatrlar repertuarida tarixiy mavzuning salmog'i oshdi. Buyuk

hayotini yorituvchi sahna asarlari vujudga kelib, davrimiz tomoshabinlari ma'naviyatini boyitdi, tarixga nisbatan qarashlarni o'zgartirdi.

Ayniqsa, Amir Temur va temuriylar haqida yaratilgan 20 ga yaqin sahna asarlari ma'naviy va madaniy hayotimizda katta voqeа bo'ldi. O'zbekistonda o'tkazilgan «Sharq va G'arb» teatr san'ati festivali, «Humo» xalqaro yoshlar teatrлari festivali, «Navro'z», «Andijon bahori» respublika teatr festivallari, qo'g'irchoq teatrlari festivallari teatr san'atining yangi ijtimoiy sharoitda rivojlanishida muhim rol o'ynamoqda. O'zbek teatri jamoalari dunyodagi bir qator mamlakatlarda ijodiy safarlarda bo'lib, o'zbek teatr san'ati yutuqlarini namoyish etishmoqda.

Xulosa o'rnida aytish kerakki, teatr har bir insonga hayotiy saboqlar beruvchi jonli vositadir. Teatrdan madaniy hordiq chiqarish uchungina emas, undagi namoyish etiladigan spektakllarni tomosha qilib, inson jamiyatdagi voqeliklarni, kechinmalarni teran anglashi mumkin. Shiddat bilan taraqqiy etayotgan texnika va innovatsiyalar zamonida istalgan kino, serial yoki spektaklni ijtimoiy tarmoqlar orqali topib tomosha qilish mumkindir. Ammo teatrga borib, sahna asari ruhini, unda mujassam g'oyalari nafasini his qilib jonli tomosha qilishning zavqi ham, ma'naviy foydasi ham o'zgacha. Zero, teatr – tarbiya maskani, ma'naviyat o'chog'idir.

Abror POYONOV,
o'z muxbirimiz.



Maqolani
qoraqalpoq tilida
o'qish uchun
QR-kodni skanner
qiling.

TEATR HAQIDA QIZIQARLI FAKTLAR

● Teatrlarning ramzi hisoblangan maxsus niqob shaxsni yashirish uchun mo'ljalangan. Qadim zamonlardan beri niqoblar teatr an'analarda muhim rol o'ynagan. Ulardan foydalanish hozirgi kungacha davom etdi.

● 1961-yilda UNESCO qoshidagi Xalqaro teatr institutining IX Kongressi delegatlari tashabbusi bilan 27-mart – Xalqaro teatr kuni deb e'lon qilingan.

● Avstriya dunyodagi eng kichik teatri bilan mashhur. U oddiygina «Kreml hovlisi» deb ataladi. Uning sahna o'lchamlari 1,3 kvadrat metrga teng. Spektaklga faqat sakkiz kishi tashrif buyurishi mumkin, xolos. Aytish joizki, u Guinnessning rekordlar kitobiga kiritilgan. Dunyodagi eng katta teatr esa «Suvdag'i marvarid» deb nomlanadi. U 2007-yili Pekinda qurilgan.

qonunchilik normalarini o'qish yoki eshitish bilan qaysidir noqonunyu xatti-harakatning mohiyatini teran anglamasligi mumkin.

Ammo real voqealarga asoslangan spektakllarda ilgari surilgan g'oyalalar nafaqat yoshlar, balki katalarning ham qalb tubiga yetib bo-

ajdodlarimiz – allomalar, shoirlar, davlat arboblari, lashkarboshilarining hayoti va taraqqiyot uchun kurashini yorituvchi o'nlab sahna asarlari yaratildi. Sahnalarda sho'rolar davrida hatto tilga olish man etilgan Bahuddin Naqshband, Hakim at-Termizi, Imom al-Buxoriy kabi allomalar



VATANNING HAR QARICHI MUQADDAS



Harbiy xizmatchilarining o'z vazifasini bekamu ko'st ado etishi, ularning moddiy-texnik tomonidan yetarlicha ta'minlanganligi bilan ham bog'liq. Bu esa harbiy qism komandirining ta'minot bo'yicha o'rnbosari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Ana shunday mas'uliyatlari vazifani sidqidildan ado etib kelayotganlardan biri IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli Navoiy viloyatida joylashgan 7551-harbiy qism komandirining o'rnbosari, mayor Bekzod Sherboyevdir. U shaxsiy tarkibning xizmat va yashash sharoitlarini yaxshilash hamda moliya va xo'jalik ishlarni yuritish kabi muhim masalalarni ham nazorat qilib kelyapti.

Lavhamiz qahramoni ilk xizmat faoliyatini bundan 10 yil avval IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli Navoiy shahridagi 7532-harbiy qismda kiyim-kechak xizmati boshlig'i lavozimida boshlagan edi. Yillar davomida ustozlarining maslahatlariga amal qilib kam bo'ldi. Bilim va malakasini oshirib, tajribasini boyitdi. 2023-yildan buyon Zarafshon shahridagi 7551-harbiy qismda xizmatini davom ettirib kelayotir.

Vadim TO'XTAYEV,
oddiy askar.

– Mayor Bekzod Sherboyev o'z vazifasini sidqidildan bajaradi, qat'iyatli va tashabbuskor, – deydi mazkur harbiy qism komandiri, mayor Bobur Ismoilov. – Shu boisdan uni jamoada barcha hurmat qiladi.

Lavhamiz qahramoni suhbat jarayonida sohadagi kasbiy mahoratini oshirishda ustozni polkovnik Abdulaziz Soliyevdan minnatdorligini alohida ta'kidladi. Endilikda uning o'zi ham to'plagan boy tajriba va mahoratini ko'plab harbiy xizmatchilarga o'rgatib, ularni malakali mutaxassis bo'lib shakllanishida jonbozlik ko'rsatib kelmoqda.

– Jonajon yurtimizni himoya qilishdek, sharafli va mas'uliyatlari sohada xizmat qilayotganidan cheksiz quvonaman, – deydi mayor B. Sherboyev. – Chunki Vatanimizning har bir qarichi muqaddas.

U turmush o'rtog'i Gulnozaxon bilan ikki nafer farzandni – Elbekjon va E'zozaxonni mehr-u muhabbat og'ushida tarbiyalab voyaga yetkazishmoqda.

KAMERALAR ALDAMAYDI

Farg'ona shahri «Taron» ko'chasida yashovchi fuqaro O.Jo'raxonov kechqurun «Gentra» rusumli avtomashinasini odatdagiday o'zi istiqomat qiladigan ko'p qavatlari uy oldida qoldirib, ichkariga kirib ketgan edi. Ertalab chiqib qarasa, mashinasi yo'q. Darhol «102» qisqa raqamiga qo'ng'iroq qildi.

Fugaroning murojaatidan so'ng Farg'ona shahar IIOFMB tomonidan tezkor guruh tuzilib, avtomashinani qidirib topish choralar ko'rildi. Birinchi galda vaziyatni nazorat qiluvchi Situations markaz orqali O. Jo'raxonov yashaydigan hududga o'rnatilgan kuzatuv kameralaridagi tasvirlar o'rganildi.

Bu eng to'g'ri va oqilona qaror edi. Xotiraga muhurlangan tasvirlar vaziyatga darhol oydinlik kiritdi. Mashina qachon harakatlantirilgani, qaysi ko'chaga qarab yurgani sinchkovlik bilan kuzatilib, hududlarda xizmat olib borayotgan xodimlarga tezkor xabar berildi.

Videokuzatuv kameralari aldamadi, ular yordamida jinoyat «issiq izida» fosh etildi. Ya'ni, mashina

Farg'ona shahri ko'chalarining birida to'xtatib ushlandi. Olib borilgan o'rganish va surishtiruv ishlari natijasida ushbu jinoyatni awal ham o'g'irlik jinoyati uchun sudlangan va axloq tuzatish ishlari jazosini o'tayotgan Sh.D. hamda uning sherigi A.S. sodir etgani aniqlandi.

Qo'li egri yigitlar olib qochilgan avtoulovning qimmatbaho g'ildiraklarini allaqachon sotib, o'rniga oddiy g'ildiraklarni taqib qo'ygan ekan. Shuningdek, ular Namangan viloyati hududida avtomobilarning davlat raqam belgilari o'g'irlaganlari ma'lum bo'ldi va raqamlar ashyoviy dalil tariqasida olindi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



SINCHKOVLIGI ISH BERDI



Kapitan Oybek Bekmurodov IIV Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti Navoiy viloyati TXTB Uchquduq bekatida xavfsizlikni ta'minlash bo'linmasi HPG katta inspektor. U temiryo'llarda huquqbazarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlash va transport infuratuzilmasini himoya qilish kabi vazifalarni sidqidildan bajarib, ko'plab jinoyatlarning barvaqt oldini olishga munosib hissa qo'shmoqda.

Yaqinda «Mustaqillik» temiryo'llarda olib borilgan profilaktik tadbirlar davomida «Tinchlik» lokomotiv deposiga qarashli teplovoz kapitan Oybek Bekmurodovda shuba uyg'otdi. Teplovozning dvigatel qismini tekshirganida, yirik hajmi idishlarda jami 1 tonnaga yaqin dizel yoqilgisi borligini aniqladi. Ma'lum

bo'lishicha, bir necha shaxs o'zaro til biriktirib, foydalanish uchun berilgan yoqilg'i o'g'irlab, sotish maqsadida olib ketayotgan ekan. Xodimning sinchkovligi natijasida davlatga yetkazilishi mumkin bo'lgan millionlab so'mlik zararning oldi olindi.

Shuningdek, qahramonimiz yo'lovchilarning xavfsizligini ta'minlash borasida ham faol. U mutazam ravishda yo'lovchilar o'tasida targ'ibot ishlari olib borib, ularga huquq va majburiyatlarini tushuntiradi. Jumladan, temiryo'llarda sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlar qurboni bo'lib qolmasliklari uchun ogohlilikka chaqiradi. O'z kasbiga sadoqatli kapitan Oybek Bekmurodov halolligi, boshqalarga g'amxo'rligi bilan ham hamkasblari orasida hurmat qozongan.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

 Урок духовности и просвещения

СЦЕНА – ЗЕРКАЛО ЖИЗНИ

С момента зарождения театр служит зеркалом, отражающим человеческую природу, играет важную роль в жизни общества, поднимая острые социальные проблемы.

Яркий представитель джадидского движения в Туркестане, ученый-просветитель Махмудходжа Бехбуди утверждал, что театр помогает находить ответы на сложные нравственные вопросы, воспитывает личность.

Истоки узбекского театрального искусства уходят в народную культуру: к фольклору, костюмированным обрядам с музыкой и танцами, выступлениям комедиантов-масхабабозов. Свидетельства о красочных представлениях, которые можно было увидеть на площадях крупных городов империи Амира Темура, оставили историки Шарафиддин Али Язи, Ибн Арабшох, Хафизи Абру, путешественник и дипломат Руи Гонсалес де Клавихо.

Появление в Туркестане узбекского театра в современном понимании связано с постановкой в 1914 году спектакля по трагедии Бехбуди «Падаркуш» («Отцеубийца»), с созданием по инициативе Абдуллы Авлони, Мунавваркори Абдурашидхонова, других представителей джадидизма труппы «Турон», состоявшей из более чем двух десятков актеров. Эти события происходили на фоне глубоких политических изменений, стремления к национальному самоопределению, борьбы за обновление общественной жизни.

В начале XX века драматургия и театр были важнейшими проводниками идеи джадидизма. Выступая в Ташкенте на открытии первого национального театра, Мунавваркори Абдурашидхонов произнес: «Сцена театра похожа на зеркальную комнату, где со всех сторон отражаются положительные и отрицательные стороны каждого, кто входит в нее, где каждый видит свои достоинства и недостатки и извлекает из них должные уроки».

За 7 лет существования труппой «Турон» было поставлено более двадцати пьес, в числе которых «Свадьба», «Несчастный жених», «Угнетенная жена» и др.

Это были драмы, критикующие невежество, предрассудки, лицемерие, пропагандирующие просвещение. Позже в Андижане, Бухаре, Хорезме, Коканде, других городах начали функционировать самодеятельные театральные кружки, ставшие впоследствии профессиональными коллективами.

Театральная жизнь Узбекистана отличается богатством и разнообразием. Более 50 государственных театров гостеприимно открывают свои двери для зрителей. Среди ведущих –



денции, отражающие глубокие изменения в стране. Творческие коллективы обращаются к наследию Чулпана, Фитрата, Кадыри, осмысливают события отечественной истории, что становится источником вдохновения для новых постановок.

Современный театр убедительно демонстрирует гармоничное развитие уникальной



Узбекский национальный академический драматический театр, Государственный академический Большой театр им. Алишера Навои, Государственный театр музыкальной комедии (оперетты) Узбекистана, Узбекский государственный академический музыкальный театр им. Мукими, Государственный молодежный театр Узбекистана. Здесь сосредоточены лучшие режиссерские и актерские силы. Молодое поколение мастеров сцены успешно продолжает традиции таких выдающихся деятелей, как Маннон Уйгур, Аброр Хидоятов, Шукур Бурханов, Наби Рахимов, Зикир Мухаммаджонов, Лутфихоним Саримсокова, Зайнаб Садриева, Баходир Юлдашев и др.

В театральном искусстве отчетливо прослеживаются тен-

культуры Узбекистана. Бережно сохраняя самобытность, он открыт для диалога с мировым искусством. На сценах ставятся как классические произведения Софокла, Шекспира, Мольера, Стринберга, Ионеско, Чехова, Дюрренматта, так и пьесы, отражающие злободневные проблемы дня сегодняшнего.

Репертуар театров постоянно расширяется, в том числе и за счет драм, посвященных прославленным личностям – Амиру Темуру, Имаму Бухари, Джалилiddину Мангуберды, Тумарис, Мирзо Улугбеку, Алишеру Навои, Бабуре Мирзо, Нодирабегим и др. Создаются художественные образы современников. Открываются новые театры, среди которых Маргиланский городской театр музыки макома.

В целях дальнейшего развития театрального искусства принято постановление Президента Узбекистана «О мерах по повышению роли театров в культурной жизни общества и дальнейшей поддержке их деятельности» от 22 ноября 2024 года. Документом утверждены Адресная программа строительства, реконструкции, капитального ремонта и модернизации зданий государственных театров в 2025–2028 годах, Программа мер по дальнейшему развитию театрального искусства. Учрежден премии имени Махмудходжи Бехбуди для драматургов и имени Народного артиста и деятеля искусств Республики Узбекистан Баходира Юлдашева для молодых режиссеров. Создаются сценические произведения на основе идеи «Во имя чести и достоинства человека». Начато осуществление проекта «Нигоҳ», направленного на расширение творческого сотрудничества на основе принципа «режиссер – драматург – композитор – художник».

В республике реализуется программа «Театр – храм», предусматривающая регулярное посещение театров населением, особенно молодежью. С участием представителей общественности налаживается проведение на ежемесячной основе в маҳаллях мероприятий «День театра».

В современном мире театральное искусство играет важную роль в воспитании патриотизма, уважения к духовным ценностям. Театр – школа эстетического и нравственного совершенствования. Он делает нас лучше, мудрее, человечнее.

**Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.**





ЎЗБЕКИСТОН ВОЛЕЙБОЛИ

Волейболга қизиқиши болалар, ўсмирлар ва катталар орасида ҳам кун сайин ортиб бормоқда. Давлатимиз раҳбари таъкидлаганидек, ёшларнинг жамоавий спорт турларига қизиқишини ошириш, шуғуланиши учун зарур шарт-шароитларни яратиш, шунингдек, спорт мусобақаларини тизимли ўтказиб боришни йўлга қўйиш бугунги давр талаби десак асло хато бўлмайди. Шу нуқтаи назардан жамоавий спорт турларидан бири бўлган волейбол бўйича ҳам Олимп чўққисини забт этиш йўлида изчил ҳаракатлар олиб борилмоқда.


«Волейбол» инглизча сўздан олинган бўлиб, маъноси – «учиб келаётган коптокни уриш»дир. Ушбу спорт тури 1895 йилда америкалик Уильям Морган томонидан кашф этилган. Волейбол З та яъни, классик, соҳил ва параволейбол йўналишларига бўлинади.



Волейбол спорт тури асосчиси Уильям Морган (АҚШ)



Халқаро волейбол федерацияси биринчи президенти Поль Либо (Франция). У 1947–1984 йилларда ушбу лавозимда фаолият олиб борган.



1957 йил 24 сентябрда Халқаро Олимпия қўмитаси волейболни Олимпия спорт тури сифатида тан олган. 1964 йилги Токиода бўлиб ўтган Олимпия ўйинларида биринчи марта волейбол мусобақалари ўтказилган.

Халқаро волейбол Федерациясининг энг юқори органи ҳар икки йилда бир марта (Жаҳон чемпионатлари пайтида ва Олимпия ўйинлари йилида) йиғида-диган Жаҳон Конгрессидир. Халқаро волейбол Федерацияси ташкил этилган

1947 йилдан буён жами 34 та конгресс ўтказилган. Конгрессда иштирок этиш учун халқаро волейбол Федерациясига аъзо бўлган ёки аъзоликка номзод барча миллий федерациялар тақлиф этилади.

Халқаро волейбол Федерацияси 5 та: Шимолий Америка, Жанубий Америка, Европа, Африка, Осиё конфедерацияларига бўлинади. Осиё конфедерацияси хам 5 та: Араб, Шарқий, Жанубий Шарқий, Океа-

МАЪЛУМОТ ЎРНИДА:
1947 йил 20 АПРЕЛДА ПАРИЖДА ТАШКИЛ ТОПГАН ХАЛҚАРО ВОЛЕЙБОЛ ФЕДЕРАЦИЯСИ – БУТУН ЖАҲОН ВОЛЕЙБОЛИНИ БОШҚАРУВЧИ ТУЗИЛМА Бўлиб, У 222 ТА МИЛЛИЙ ФЕДЕРАЦИЯНИ ҮЗИДА БИРЛАШТИРАДИ. ШТАБ КВАРТИРАСИ ШВЕЙЦАРИЯНИНГ ЛОЗАННА ШАҲРИДА ЖОЙЛАШГАН ТАШКИЛОТ ПРЕЗИДЕНТИ ФАБІО АНДРЕ ДИАС АЗЕВЕДО (БРАЗИЛИЯ) САНАЛАДИ.

ния, Марказий ва Жанубий Осиё минтақаларини ўз ичига олади. Марказий ва Жанубий Осиё минтақаси 2 та: Марказий ва Жанубий Осиё ассоциациясига эга. 5 та давлатни бирлаштирган Марказий осиё ассоциация президенти – Муҳаммад Латиф (Малдив ороллари) хисобланади.

Ўзбекистон волейбол спорт тури билан шуғуллашиш учун яхши ривожланганганди. Осиё конфедерацияси хам 5 та: Араб, Шарқий, Жанубий Шарқий, Океа-


ния, Марказий ва Жанубий Осиё минтақаларини ўз ичига олади. Марказий ва Жанубий Осиё минтақаси 2 та: Марказий ва Жанубий Осиё ассоциациясига эга. 5 та давлатни бирлаштирган Марказий осиё ассоциация президенти – Муҳаммад Латиф (Малдив ороллари) хисобланади.

ТАЪКИДЛАШ КЕРАККИ, ҲОЗИРДА ВОЛЕЙБОЛ БЎЙИЧА МИЛЛИЙ ТЕРМА ЖАМОА УЧУН «ЖАР» СПОРТ-СОГЛОМЛАШТИРИШ КОМПЛЕКСИДА ТАЯНЧ СПОРТ БАЗASI, АЁЛЛАР ЖАМОАСИ УЧУН ЯНГИҚЎРФОН ТУМАНИДА, ЭРКАКЛАР УЧУН БУХОРО, НУКУС ВА ХОНОБОД ШАҲАРЛАРИДА ЯНГИ ЎҚУВ ЙИҒИНЛАРИ БАЗАЛАРИ ТАШКИЛ ЭТИЛГАН. БУНДАН ТАШҚАРИ, ЎТГАН ЙИЛИ ИИВ «ЖАР» СПОРТ-СОГЛОМЛАШТИРИШ КОМПЛЕКСИ ҲУЗУРИДА «ҲУМО» ВА «РОАД ПАТРУЛЬ» ВОЛЕЙБОЛ СПОРТ КЛУБЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ БОШЛАГАН.

кур спорт тури мактабларда оммавий тус олган, жисмоний тарбия бўйича дастурнинг ажралмас қисми ҳисобланади. Мамлакатимизда волейбол федерацияси 1920 йилда ташкил этилган бўлиб, волейбол мусобақаларини ўтказиш, ушбу спорт турини оммалаштириш ва бошқариш билан шуғулланади. 1992 йилда Халқаро волейбол Федерацияси

Айнан ўша йили Тошкент шаҳрида илк бор Марказий Осиё ва Осиё чемпионатлари ўтказилиб, мазкур тадбирларда 16 та мамлакатдан келган 350 га яқин спортчилар иштирок этди. Шунингдек, мамлакатимизда 9 та маҳаллий мусобақалар ўтказилди.

Ўтган йили эса Миллий терма жамоа (эркак ва аёллар) 8 та халқаро мусобақа-





Халқаро волейбол федерациясининг амалдаги президенти Фабио Андре Азеведо (Бразилия)

ларда қатнашиб, уларнинг 6 тасида совринли ўринларни эгаллади. Айниқса, Бутан давлатида ўтган Марказий осиё волейбол ассоциацияси кубогида Ўзбекистоннинг 2 та аёллар терма жамоаси қатнашиб, соҳил волейболи бўйича 2 ва 3-ўринларни эгаллагани эътиборга молик. Бу дегани мамлакатимизда соҳил волейболи ва парва волейболни ривожлантиришга ҳам алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Соҳил волейболи ва парва волейбол Олимпиада ўйинларига киритилгандиги яққол далил бўла олади.



боис 2028 йилда Лос-Анжелес шаҳрида ўтказиладиган олимпиадада жамоаларимиз иштирок этиши ҳуқуқини қўлга киритиши учун истиқболли режалар амалга оширилмоқда. Бундан ташқари, ўтган йил-

2024 йил 14–17 ноябрь кунлари Португалияда бўлиб ўтган халқаро волейбол федерациясининг 39-жаҳон Конгрессида Ўзбекистон волейбол федерациясидан ҳам масъуллар қатнашиб, ўз таклифларини бердилар.

Умуман олганда, волейбол федерациясининг халқаро ҳамкорлик алоқаларини йўлга қўйиши натижасида истиқболли лойиҳаларни ҳаётга татбиқ этиши учун зарур шарт-шароитлар вужудга келди. Халқаро волейбол

федерацияси президентига билдирилган таклифлар натижасида «Лос Анжелес – 2028» Олимпия ўйинларига тайёргарлик кўриш учун 2024–2028 йилларда 2 нафар халқаро тренерлар Ҳалқаро волейбол Федерацияси ўзбекистонга жалб этилди.

Тошкент шаҳрида 2025 йил 21 июль – 4 август кунлари 19 ёшгача ўғил болалар жамоалари ўртасида Жаҳон чемпионати ўтказилади. Қайд этиш жоизки, волейбол бўйича ўтказилиши анъанага айланган Ички ишлар вазири кубоги учун мусобақалар, хоҷички чемпионатлар бўлсин ташкилотчилик жиҳатидан халқаро мусобақалардан колишмаяпти!

Сўнгги икки йил давомида волейбол бўйича терма жамоамиз юртимиздан ташқари, Қозогистон, Арманистон, Россия, Таиланд,

Бутан, Мальдив ороллари, Эрон, Шри-Ланка, Польша каби қўшни ва хорижий мамлакатларда ўтказилган мусобақаларда ёрқин гала-балари билан Ватанимиз байроғини юксакларга кўташиди.

Ички ишлар вазирилиги тизимида спортнинг волейбол тури бўйича ташкил этилган «Хумо» ва «Роад патруль» волейбол спорт клублари 2024 йилда ўтказилган «Ўзбекистон кубоги» мусобақасида муносиб иштирок этиб, мусобақа якунига кўра, аёллар жамоалари ўртасида «Хумо» волейбол клуби 3-ўринни, эркаклар жамоалари ўртасида «Роад патруль» волейбол клуби 1-ўринни эгаллади.

**Аброр ПОЁНОВ,
ўз мухбиримиз.**





INSOFI YO'QNING IYMONI YO'Q



Inson aql-zakovat sohibi. O'zini idora qilishi uchun unga go'zal va ezgu fazilatlar ato etilgan. Kimdir bunga shukur qilib, halol va pok yashaydi, kimdir esa...

Kechki payt. Bozor nihoyatda gavjum. Jannatmonand yurtimizning saxiy zaminida pishib yetilgan mevalar rastalari chiroyli qilib, tartib bilan terib qo'yilgan. Shu payt sal naridagi go'sht do'konida shovqin ko'tarildi. Ma'lum bo'lishicha, bir ayol bir necha daqqa avval

qassobdan ikki kilo go'sht olib ketgan ekan. Bozor darvozasi oldida turgan tarozida tortib ko'rsaki, go'sht oz emas, ko'p emas – naq 400 gramm kam chiqibdi. Ayol shu zahoti ortiga qaytibdi. Sotuvchi esa undan ustun kelish uchun tortishar, aksincha, ayolni qalloblikda ayblar edi. Uning tap tortmay onasi tengi ayolni aldab, endi suvdan quruq chiqishga urinishi yigit kishiga yarashmaydigan ish edi. Siz nima deysiz?

Bir «tadbirkor» uy sharoitida turli xil ichimliklar tayyorlab sotadi. Uydagи sharoit, sanitariya-gigiyena holati esa umuman talabga javob bermaydi.

– Ana shu ichimliklardan bolalaringiz ham ichadimi?
– so'rashibdi «tadbirkor»dan.

– Yo'q.

– Unda nega iste'molga yaroqsiz ichimlikni boshqalarga ravo ko'ryapsiz?

Hали odam indamasdan yelka qisibdi.

Odamlar sog'lig'idan o'z manfaati, daromadini ustun qo'yan kimsalarni kim deb atash mumkin?

Feruza RAHMONQULOVA.



Foydali test savollari

1. Qaysi yildan boshlab respublika ichki ishlar organlarida «Yagonasan, muqaddas Vatan!» qo'shiqlar ko'rik-tanlovi o'tkazilmoqda?

- A) 2006-yildan;
- B) 2008-yildan;
- V) 2009-yildan;
- G) 2011-yildan.

2. Quyidagilardan xamsanavis shoirlarni toping.

- A) Xusrav Dehlaviy, Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy;
- B) Alisher Navoiy, Lutfiy, Mirzo Bedil;
- V) Mirzo Bedil, Cho'lon, Abdulla Qodiriy;
- G) Alisher Navoiy, Imom G'azolliy, Abduholiq G'ijduvoniy.

3. O'zbekiston Respublikasi BMTga qachon a'zo bo'lgan.

- A) 1991-yil 31-avgust;
- B) 1992-yil 27-dekabr;
- V) 1996-yil 2-mart;
- G) 1992-yil 2-mart.

4. «Movarounnahr» so'zining ma'nosi.

- A) Toshdan qurilgan shahar;
- B) Ikki daryo oralig'idagi yerlar;
- V) Yashil vodi;
- G) Tog'lar orasidagi mamlakat.

5. O'zbekiston Respublikasi-da davlat hokimiysi qanday hokimiyat tarmoqlariga bo'lindadi?

- A) Markaziy hokimiyat va mahalliy hokimiyat;
- B) Oliy Majlis, Oliy sud va Vazirlar Mahkamasi;
- V) Prezident, parlament, Hukumat;
- G) Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiysi.

6. Amir Temur tomonidan qurdirligan qaysi inshoot pesh-toqiga «Agar bizning qudratimizga shubha qilsang, biz qurgan imoratlarga boq» degan so'zlar yozib qo'yilgan?

- A) Oqsaroy;
- B) Bibixonim masjidi;
- V) Go'ri Amir;
- G) Ko'ksaroy.



BIROVNING HAQI BUYURMAS

So'nggi paytlarda bekalar orasida afg'on qozonida taom tayyorlash rosa ommalashdi. Shu boisdan bozorlarimizda mazkur qozonlarning savdosи chaqqon.



Zohir (voqeа ishtirokchilarining ismlari o'zgartirildi) ham o'sha mashhur qozonlardan ko'tarasiga arzon narxda olishni o'yab yurgan kunlari Jo'rabeк bilan tanishib qoladi. Yangi tanishining qo'lida naqd puli borligini bilgan Jo'rabeк paytdan foydalanib, uning ishonchiga kiradi. Bir oy ichida arzon narxda afg'on qozonlarini olib kelib berishini va'da qilib, undan 60 ming AQSH dollari miqdoridagi pulni oladi. Oradan aytilgan vaqt o'tsa hamki, mahsulotdan darak bo'lmagach, Zohir yana Jo'rabeк bilan uchrashadi. Qozonlar allaqachon Afg'onistondan yuk avtomashinasiga ortilgani, bir hafta ichida yetib kelishini aytib, uni ishontiradi. Yo'il yo'rig'i shunday bo'lsa kerak-da, deb indamay qo'ya qolgan Zohirdan yana foydalanish maqsadida:

– Qozonlar tezroq yetib kelishi uchun ozroq xarajatlar chiqib qoldi, yana 17 ming dollar bo'lganda... Xavotir olmang, hali bu xarajatlarining ikki-uch baravar bo'lib chiqib ketadi, – deydi ayyorlik bilan unga.

– Yuklar mashinaga ortilgan bo'lsa, bu yog'iga ham g'ayrat qilaylik, – deb yana so'ragan pulini beradi Zohir.

Jo'rabeк «o'lja»ning soddaligidan, ishlari oson hal bo'layotganidan o'zini yettinchi osmonlarda his etadi. Unga endi mahsulotning ham, vaqtning ham farqi yo'q edi, muhim, pullarga ega bo'ldi. Zohir esa kutishdan, Jo'rabeкni qidirishdan charhab, masalani qonun yo'li bilan hal qilishdan boshqa chorasi qolmaydi.

Sudda Jo'rabeк «Zohirdan oлgan pullarni afg'on qozoni olib kelib

berishi uchun Toyir ismli Afg'oniston fuqarosiga berdim. U meni ham al-dab ketdi. Buni inobatga olib, menga yengillik berishingizni so'rayman», – dedi.

Sud hukmiga ko'ra, Jo'rabeк O'zbekiston Respublikasi JKning 168-moddasi 4-qismi «a» bandi bilan 8 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilinib, jabrlanuvchi Zohirning foydasiga yetkazilgan zararni undirib berilishi tayinlanadi. Biroq u hukmdan norozi bo'lib, apelyatsiya tartibida, ishni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

Apelyatsiya shikoyati asosida ishlar yana ko'rib chiqiladi. Nihoyat Jo'rabeк ayliga iqrorigini, oilada yolg'iz boquvchi ekanligini, qaramog'ida voyaga yetmagan farzandlari borligini bildirib, suddan yengillik berishini so'raydi. Lekin bu holatlar unga birovni chuv tushirish huquqini bermaydi-ku. Shu boisdan hukm o'zgarishsiz qoldiriladi...

Azaldan «Birovning haqi buyurmaydi», degan naql bor. Ammo bugungi kunda o'zganing haqidan qo'rqlaydigan, haromdan hazar qilmaydigan, o'zaro oldi-berdida lafzdan tonadigan, qarzni qaytarishdan bo'yin tovlaydigan, firibgarlik qilib odamlarning pullarini o'zlashtiradigan kimsalar uchrab turibdi. Shundaylarga qarata: «Unutmang, hamma narsaning savol-javobi bor. Qonuniy chora ko'rilsa, vaqt o'tib jazoni o'tash mumkindir, ammo hayot jazolaridan qochib qayga borasiz, oxiratni-ku, aytmay qo'ya qolaylik», – degimiz keladi...

**Muso YUSUPOV,
Jinoyat ishlari bo'yicha
Toshkent shahar sudining
sudyasi.
Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.**



Юбилей

НЕ СТАРЕЮТ ДУШОЙ ВЕТЕРАНЫ



Авторитет и опыт ветеранов органов внутренних дел – ориентир для молодых сотрудников. Они вносят достойный вклад в сохранение славных традиций службы.

Леонид Николаевич Ефимцев родился в 1955 году в Ташкенте.

В 1980 году по рекомендации молодежной организации Л. Ефимцев был принят в органы внутренних дел. Его инженерное образование определило место работы – инспектор отдела государственного пожарного надзора Управления пожарной охраны МВД Узбекистана.

– Это был ответственный этап моей жизни, – вспоминает ветеран. – Вместе с коллегами оказывали помощь подразделениям в повышении эффективности работы по обеспечению пожарной безопасности.

В 1989 году Л. Ефимцев возглавил военно-химическую службу отдела ВМРигЗ МВД. Его задачей было поднять на качественно новый уровень обучение личного состава навыкам работы с приборами радиационной и химической разведки, использованию средств защиты. Особое внимание он уделял вопросам отработки подразделениями оперативных планов.

За годы службы герою очерка не раз приходилось участвовать в специальных операциях, в том числе в событиях 1992 года в Сариасийском районе, в разведывательно-поисковых мероприятиях и ликвидации бандформирований в районе Янгиабада в 1999 году, в Ахангаране в 2000 году.

Об умелом руководителе – заместителе начальника отдела ВМРигЗ МВД Узбекистана подполковнике Л. Ефимцеве коллеги отзывались как о профессионале, наставнике. Его ученики сегодня успешно несут службу в правоохранительных органах республики.

В 2009 году герой очерка вышел на заслуженный отдых. Однако активная позиция не позволила ему быть в стороне от общественной жизни. Он участвует в ветеранском движении, передавая богатый опыт молодым сотрудникам органов правоохраны.

В эти дни Леонид Николаевич принимает поздравления с 70-летием. Мы присоединяемся к ним, желаем крепкого здоровья, бодрости духа, благополучия!

**Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.**

2-А



Женщина в погонах

ЦЕЛЕУСТРЕМЛЕННАЯ РУХШОНА

За плечами старшего инспектора по вопросам женщин УПП УВД Самаркандской области капитана Рухшоны Джалолидиновой – восемь лет службы. В 2017 году она окончила Самаркандский государственный университет и начала свою карьеру в органах внутренних дел.



Первые шаги в профессии делала в отделе миграции и оформления гражданства ОВД Самаркандского района, а в 2019 году была переведена в отдел по работе с женщинами.

– Я требовательна к себе, никогда не останавливаюсь на достигнутом, – признается капитан Джалолидинова.

– Моя работа предусматривает осуществление анализа преступности среди женщин, разработку мер по ее предупреждению, оказанию помощи в социальной адаптации тем, кто вернулся из мест лишения

свободы, содействию в их трудоустройстве.

Служба в правоохранительных органах – это не только большая ответственность, но и серьезные испытания. Рейды, дежурства, командировки – все это требует от женщин в погонах огромной самоотдачи. Но, несмотря на напряженный график, Рухшона всегда находит время для семьи.

– Счастье заниматься любимым делом, видеть результат своего труда и, несмотря на все трудности, с радостью возвращаться домой, – говорит капитан. – Достичь успеха

можно, только полностью отдаваясь своему делу. И очень важно при этом иметь поддержку близких. У меня есть моя семья – супруг и сын Миразим. Именно их поддержка помогает двигаться вперед.

Сдержанная, но целеустремленная Рухшона Джалолидинова строит амбициозные планы на будущее. Она ни разу не пожалела о выборе профессии и продолжает стремиться к новым высотам.

**Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.
Самаркандская область.**

Фото из архива



На снимке: командир конного дивизиона ныне ГУВД города Ташкента полковник Наби Каримов с коллегами проводит осмотр служебной лошади перед заступлением в патруль. 1976 год.


www.postda.uz

t.me/postdarasmiy

www.facebook.com/postdauz

www.instagram.com/postda_uz

VAZIR KUBOGI

HAMJIHATLIK G'ALABACA BOSHLADI

IIV «Jar» sport-sog'lomlashtirish majmuasida bo'lib o'tgan futbol bo'yicha «Ichki ishlar vaziri kubogi» turnirining final bosqichida 19 ta terma jamoa o'rtaсидаги saralash bosqichida zafar quchgan 8 ta jamoa g'oliblik uchun kurash olib bordi.



Sirdaryo viloyati IIB TVBSO xodimi, kichik serjant Islom Asilbekov «Eng yaxshi himoyachi» hamda g'olib jamoa sardori, leytenant Allayar Reymov «Eng yaxshi o'yinchisi» nominatsiyalarini g'olib deb topildi.

Umrbek RAJABOV,
podpolkovnik.

Qizg'in o'tgan bellashuvlar yakuniga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV jamoasi g'olib deb topilib, vazir kubogini qo'lga kiritdi. Sirdaryo viloyati IIB vakillari ikkinchi, Andijon viloyati IIB jamoasi esa uchinchi o'ringa munosib topildi.

Taqdirlash marosimida shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV TVBSO xodimi, serjant Po'lat Abdullayev «Eng yaxshi hujumchi», Andijon viloyati IIB PPX inspektorasi, safdar Javohir Sadirov «Eng yaxshi darvozabon»,



KO'KLAM SHODIYONASI

Xiva gilamidek zamin turfarang,
Nukus bog'larida ko'klam havosi.
Qashqa vohasidan turib bir qarang –
Surxon tog'larida baxshi navosi.

Naqshband elida qo'llar duoda,
Yaratganga yetar yurak nidosi.
Navoiy nazmidan alyor samoda,
Registon sahnida karnay sadosi.

Guliston – cho'l bag'rin yashnatgan chaman,
Yaratuvchanlikni kasb qilgan xalqim,
Baxmal qirlarida turib tilayman,
Ezgulik ko'kida quyoshdekk balqin.

Boburni kuylatgan go'zal diyorda,
«Andijon polkasi» charx urayotir.
Namangan atalmish hadsiz gulzorda,
Farg'oniy elida kun kulayotir.

Shu aziz Vatanga hech tegmasin ko'z,
Muqaddas qo'rg'onim, ey ona Toshkent!
Boqqin, ostonganda jilmayar Navro'z,
Quchog'ingni ochgin, qoshiga shoshgin!

Sumalak bo'yidan sarxushdir quyosh,
Emin-erkin elim tilida alyor.
O'ynab-kular bugun keksa hamda yosh,
Marhabo, ezgulik elchisi – Bahor!

Erkin SATTOROV.

«Postda-На посту» газетасининг 95 йиллиги олдидан

РАҲМАТИЛЛА АКАНИНГ «ТИЛЛА САНДИФИ»

Ҳар гал газетанинг навбатдаги сони режалаштирилаётганда бош муҳаррир ўринбосари мухбирлардан мақолаларни кўпайтириш зарурлигини таъкидлаб, Раҳматилла акага юзланиб: «Захирада материаллар борми, «тилла сандифи»нгизни очиб, ичидағини сочинг дерди кулимсираб. Кейин Раҳматилла aka бир даста мақолаларни столга қўярди...

Баланд бўйли, кенг гавдали, кўзлари кулиб турадиган бу самимий инсон билан мулоқот қилишининг ўзига хос гашти бор. Раҳматилла aka доим оҳиста, қандай вазият бўлмасин, овозини кўттармасдан, дона-дона қилиб гапирад, мақолада биронта камчиликка йўл қўйган бўлсак, эринмасдан ҳар бир мухбирнинг хонасига кириб, батафсил тушунтиради.

Бирлашган таҳририят масъул котиби лавозими-

да ишлаб, ўз касбининг ҳақиқий фидойиси бўлган Раҳматилла aka Berdiyev ҳақида илиқ, қизиқарли хотиралар жуда кўп. Бу инсоннинг жонкуярлиги, фидокорлиги, билимдонлиги ва камтарлигига кўпчилик ҳавас қиласди.

1953 йил Самарқанд вилоятида зиёлилар оиласида дунёга келган Раҳматилла Berdiyev ўқувчилик пайтиданоқ илм олишга иштиёқи юқорилиги туфайли кўп китоб ўқиди. Билимга чанқоқ-

лиги боис, мактабда юқори натижаларга эришган. Фолиятини 1972 йилда «Ёш гвардия» театрида ёритувчи лавозимидан бошлаган Р. Berdiyev ҳарбий хизматдан сўнг Тошкент давлат университетида таҳсил олди. 1984–2002 йилларда

«Кино» Бирлашган таҳририятида катта муҳаррир, «Оила ва жамият» газетаси, «Хўжалик ва ҳуқуқ» журнали ҳамда «Республика» газетасида бош муҳаррир ўринбосари лавозимларида самарали меҳнат қилди. 2002–2015 йилларда ИИВ Бирлашган таҳририятида масъул котиб сифатида нашрларнинг ранг-баранг чиқишига муносаб ҳисса қўшди.

R. Berdiyevning юксак маънавият соҳиби эканлиги, одамларга бўлган меҳри,



тарихни яхши билиши, кўп китоб мутолаа қилганлиги гап-сўзларида, ёшлар билан бўлган сұхбатларида яққол намоён бўларди.

Раҳматилла aka қайси мавзуга ёндашмасин, ўзбекона нигоҳ, қадрият ва аньаналаримиз истараси унинг сўзларидан балқиб туради гё... Уларнинг «Фидойилик формуласи»да айнан шу жиҳатлар бўй кўрсатган.

Лавҳамиз қаҳрамони турмуш ўртоғи Озода опа билан икки ўғилни олий маъ-

лумотли, жамиятга нафи тегадиган инсонлар қилиб тарбиялашди. Катта ўғли Шерзод «Vertigo production» фирмаси раҳбари, Беҳзод эса Ўзбекистон миллый телерадиокомпанияси «Dunyo bo'yab» каналида режиссер.

Шириндан-шакар набираларнинг бобоси Раҳматилла aka пенсияга чиқсан бўлса-да, замон билан ҳамнафас қадам ташламоқда.

Азизжон ФАЙЗИЕВ,
подполковник.

FAKHRIYLAR – FAXRIMIZ

«ХИЗМАТДА ЯШАШ КЕРАК»

Истеъфодаги подполковник Баҳром Қулбеков узоқ йиллар ички ишлар органларида сидқидилдан хизмат қилиб, бир неча шогирдларга устозлик қилган фидойи ва жонкуяр фахрийлардан. Унинг тизимнинг кеча ва бугуни ҳақидаги фикрларини тингласангиз, истеъфога чиққанига қарийб бир ўспирин улғайгудек фурсат ўтган бўлса-да, ўзи меҳр қўйиб, астойдил фаолият юритган соҳага бефарқ эмаслиги ва тизимдаги ислоҳотларни ҳамиша кузатиб, таҳлил қилиб боришига амин бўласиз.

– Маҳаллада, кўча-кўйда, жамоат жойларида, корхона ва ташкилотларда, телевизорда на-мойиш этилаётган дастурларда ички ишлар органлари ходимларини кўрганда, хизмат йилларим ёдимга тушаверади, – дейди лавҳамиз қаҳрамони. – Устозларимиз «Танлаган касбингнинг ўзига хос томонларини эринмай ўргансанг, ҳеч қачон билим, тажриба, маҳорат борасида мулзам бўлмайсан», деб ўргатган. Шу ақидани ёдда тутиб кам бўлмадим. Кадрлар бўлнимининг тарбия йўналишидаги фаолиятимда ходим касбингнинг талаб ва мажбуриятларидан келиб чиқиб, ўзи учун белгиланган меъёрларни ҳар ҳарфигача ёдда тутиши керак, деган талабни қатъий қўйиб ишладим. Ходимнинг устидаги либоси, ҳаракати унинг қандай инсон эканлиги ҳақида сўзлаб туриши эътибор марказимда бўлди. Бунда устозларим – полковник Ўткир Жўраев ва майор Пўлат Ашуроффдан олган қимматли сабоқларим аскатди. Уларнинг ҳар бир сўзи, хатти-ҳаракатида ибрат бор эди. Шу боис тизимдаги «устоз-шогирд» анъаналарини ниҳоятда қадрлайман. Доно халқимизда «устоз кўрган», деган ибора бежиз яралмаган. Мен ҳам устозларимдан ўрганганларимни кейинги авлодга ўргатдим.

Кўқонда туғилиб, Фарғона политехника университетида инженер-механик, кейинчалик ИИВ Академиясида ҳуқуқшунослик бўйича таълим олган Баҳром Қулбеков ўзига нисбатан ниҳоятда талабчан инсон. У ҳаётга теран нигоҳ билан қарашни қадрлайди. Ҳар бир инсон танлаган касбида шунчаки ишлаши эмас, балки яшаши керак, деб ҳисоблайди. Бу қоидани у фарзандларининг онгу шуурига ҳам сингдирган. Бугун унинг катта ўғли Бунёдбек ҳуқуқшунос, қизи Дурдона

психолог, оиланинг кенжаси Бобур ахборот технологиялари соҳасини танлаган ва ўз касбнинг устаси сифатида фаолият юритишиди. Турмуш ўртоғининг машақатли ва шарафли касбдаги фаолиятини ўзининг меҳр-муҳаббати ва оқилалиги билан қўллаб келган Ўзбекистон Миллий университети профессори Лаълихон Муҳаммаджанова оила ошёнининг осоишини таъминлашга муносиб ҳисса қўшган олима аёллардан, десак, асло муболага эмас. Уларнинг файзли хонадонини набираларининг шўх-шодон кулгулари тўлдириб туради. Айниқса, Баҳром aka набираларининг астагина ота-онасидан гўёки яшириб, пичирлаб

интилади. Ҳаётда муҳим хуласага келишда шошилмаслик кераклигини билгани учун ҳам, мулоҳаза билан иш кўради. Ички ишлар органларидағи фаолияти давомида бурчига садоқат, хизматига фидойилик кўрсатганинг сири ҳам шунда, аслида. Яна бир жиҳат қаҳрамонимизнинг турмуш йўлларида шиорга айлантирган мулоҳазалари бор. У баъзан бундай фикрларини ён дафтарига қоралаб, санасини ҳам кўрсатиб қўяди.

– Инсон ҳаётда ҳақиқатга тик боқишдан чўчимаслиги керак, – дейди у. – Кўрқоқ одам ҳаётда ўз ўрнини тошига қўйналади, ундан одамлар қочади. Яна оиласда оқибатнинг кўтарилишига йўл қўймаслик керак. Оиладаги аҳиленоқлиқда барака бор. Қизларимизни ўқитишимиз, уларнинг таълимига алоҳида эътибор қартишимиз жоиз. Яқинлар, ёру биродарлар дийдори ёқимли ҳислар тухфа этади. Уларнинг қадрига етиш лозим. Устозлар, шогирдлар билан ҳамиша фикрдош бўлишга интилиш даркор. Нафакат устозлардан, балки шогирдлардан ҳам кўп нарса ўрганса бўлади.

Зоро, инсон инсонга кўзгудир.

Ёниқ қалб ҳарорати, эзгу ўй-фикрлари билан ҳаётда ҳалол меҳнати ортидан ҳурмат қозониб, оиласи, яқинлари бағрида баҳтсаодатга эришиб, ҳар жиҳатдан тўқис умргузаронлик қилаётган истеъфодаги подполковник Баҳром Қулбеков яқинда табаррук етмиш ёшни қаршилайди. Чин инсоний фазилатлар аъмолига айланган бу инсонга мустаҳкам соғлик, пири бадавлатлик тилаб, тақдир ёзигларига ҳавасмандмиз.

Гулноза ТУРҒУНБОЕВА,
ӯз мухбириими.



бобосига илинган эркаликларидан яйраб кетади. Мехрибон ва жонкуяр бобо уларни мактабга элтади, болалар майдончалари, истироҳат боғларини саир қилидириб, бозорларга олиб боради. Хуллас, Баҳром aka катта авлод билан кичик авлод ўртасида меҳр-оқибат кўпргишининг мустаҳкам устуни, муқаддас ришталарни ардокловчи инсон.

Лавҳамиз қаҳрамони доим туғилиб ўсган она заминнинг ҳар бир гулу гиёҳидан тортиб, одамларнинг ўзаро инсоний муносабатларидан кўпчилик кўзи илғамас моҳиятни англашга

MULOHAZA

Xorijiy til-larni o'rganish biz yoshlar uchun niyoyatda muhimdir. Aslida til o'rganish nimaga kerak? Til o'rganishni boshlay olmayapsizmi? Bu savollarga men til o'rganish jarayonida javob topdim va bu xulosalarim tengdoshlarimga asqatadi, deb o'ylayman.

TIL – MUNOSABATLAR KALITI

Xorijiy tillarni o'rganish, eng avvalo, biz yoshlarni o'z bilim va ko'nikmalarimizdan oqilonan foydalanib, zamonaqiy tahidilarga qarshi turishga o'rgatadi. Shuningdek, til o'rganishga alohida ahamiyat berish xotirani mustahkamlaydi. Bir vaqtning o'zida ko'r vazifalarni bajara olish va muammolarni tez hal qila bilish kabi xislatlarni kuchaytiradi. Til bilish insonda madaniy qiziqishni uyg'otadi va dunyoning boshqa mintaqalaridagi odamlar bilan muloqot qilishni osonlashtiradi. Xalqaro formatda imtihon topshirishda tayyorgarlik ko'rishga yordam beradi. Ya'ni, til bilgan inson xorijda o'qishi, o'rganishi mumkin. Yana bir jihat, yangi til o'rganish o'ziga bo'lgan ishonch va moslashuvchanlikni rivojlantiradi.

Xo'sh, endi asosiy masala, til o'rganishni qanday boshlash kerak? Bunda aniq maqsadlar qo'ying, nega til o'rganmoqchiligingizni bilib oling va erishmoqchi bo'lgan marralaringizni belgilashni unutmang. Til o'rganish bilan izchil shug'ullanish uchun kuniga kamida 15–30 daqiqa ajrating. Musiqa eshitish, shoular ko'rish, hayotiy til bilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun til egalari bilan muloqot qilish yanada foydali. Bunda xato qilishdan qo'rmaslik kerak, chunki xattolar o'rganish jarayonining bir qismidir. Qolaversa, vaqtinigizni boshqarishni o'rganing, ya'ni kichik mashqlar ham katta o'zgarish uchun yetarli bo'lishi mumkin.

Xulosa shuki, xorijiy tilni o'rganish siz o'ylagandek qiyin emas, faqat astoydil qunt kerak, xolos.

Fayz IGAMQULOV,
IV 1-sonli Toshkent akademik
litseyi 2-bosqich o'quvchisi.

■ Бухарская область

ОПИРАЯСЬ НА ЗНАНИЯ И ОПЫТ



Майор Захиджон Хакбердиев в 2004 году начал службу экспертом группы ЭКО Каганского городского ОВД. За годы службы он приобрел бесценный опыт, работая в подразделениях ОВД города Бухары и УВД области. С октября 2023 года является старшим экспертом экспертно-криминалистической группы ОВД Каракульского района.

Профессионал своего дела майор З. Хакбердиев вносит значительный вклад в укрепление общественного порядка, обеспечение безопасности граждан, оперативное раскрытие преступлений. Его специализация включает проведение сложных криминалистических экспертиз – дактилоскопических, трасологических, баллистических и других видов, требующих внимательности.

Майор Хакбердиев щедро делится знаниями с молодыми специалистами, обучая их эффективному использованию криминалистической техники при проведении следственных действий и оперативно-розыскных мероприятий. Он помогает

коллегам раскрывать преступления, действовать по горячим следам.

Кроме того, офицер принимает участие в обеспечении безопасности при проведении массовых мероприятий в районе.

– В нашей работе ошибки недопустимы, требуется точность, – отмечает Захиджон Хакбердиев. – Поэтому каждое доказательство мы проверяем тщательно, опираясь на знания и опыт.

Майор Хакбердиев стремится к главной цели – обеспечению принципа неотвратимости ответственности за преступления.

**Эркин КОБИЛОВ,
майор.**



Лучшие в своем деле

СЛУЖБА КАК ПРИЗВАНИЕ

Рынок на Востоке – это не просто торговая площадь. Здесь не только покупают и продают, но и обмениваются новостями, обсуждают важные события, следят за изменениями в ценах. Однако среди многолюдных рядов встречаются не только честные торговцы и покупатели, но и те, кто ищет легкой наживы.

За общественным порядком на рынке «Юнусабад» вместе с коллегами следит инспектор отряда патрульно-постовой службы УКД ОВД Юнусабадского района рядовая Неля Бекназарова. Ее работа – не только контролировать ситуацию,

но и обеспечивать безопасность посетителей и продавцов, предотвращать нарушения закона, защищать людей от мошенников и карманников.

Каждый день приносит новые вызовы. Иногда это мелкие кражи, иногда – конфликты, кото-

рые могут перерасти в серьезные разбирательства. В таких ситуациях требуется не только сила, но и выдержка, способность действовать быстро и решительно.

Неля Бекназарова – пример для коллег. Она обладает отличной фи-



3-В



зической подготовкой, умеет тактично и профессионально урегулировать конфликтные ситуации, противодействовать незаконной торговле, предотвращать хулиганские проявления.

С детства Неля мечтала о службе в правоохранительных органах. Ее вдохновляла тетя – майор Татьяна Бекназарова, долгие годы проработавшая в УКД ОВД Учте-

пинского района. Следуя семейной традиции, героиня очерка вот уже 15 лет служит в подразделениях ГУВД Ташкента.

Неля растит дочь Амалию, поддерживает мать, успевает заниматься домашними делами. Возможно, подрастающая Амалия тоже выберет путь служения закону, продолжая традицию.

Соб. корр.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdaуз



www.instagram.com/postda_uz



БАЙРАМ ТАРАДДУДИ

Тошкент вилояти. Наврӯз умумхалқ байрами арафасида ИИВ хузуридаги ЖИЭД Биринчи миңтақавий ҳудуди 13-сон жазони ижро этиш колониясида саф кўриги ташкил этилди. Тадбир чоғида мазкур муассаса ходимларининг ташқи кўриниши, хизмат кийимини кийиб юриш тартиб-қоидаларига риоя этиши ҳамда доимий тарзда ёнида бўлиши талаб этиладиган анжомлар ва хизмат гувоҳномаларининг мавжудлигига алоҳида эътибор қаратилди. Шунингдек, ходимлар билан сафда юриш ва ҳарбийча саломлашиш машғулоти ўтказилди.

Низомиддин ФАХРИДДИНОВ,
майор.



IV TA'LIM MUASSASALARIDA

YUKSAK ORZULAR MASKANI

IV Sirdaryo akademik litseyida besh yuzdan ortiq yoshlar tahsil olmoqda. Ular orasida Asilbek Mahkamov o'z ustida tinimsiz izlanishi, dunyoqarashi va kreativ fikrashni bilan ajralib turadi. Yaqinda u ingliz tilidan milliy sertifikatni qo'liga kiritdi. Litseyda joriy yilning o'zida o'n beshga yaqin o'g'il-qiz ana shunday sertifikatga ega bo'lib, oliyoh talabasi bo'lish uchun katta qadam qo'yishdi.

Ta'lim muassasasida o'quvchilarga huquq, tarix, ingliz tili kabi fanlar chuqurlashtirib o'tildi. Qiziqishlariga qarab qo'shimcha darslarga jaib qilinadi.

– Men kitob o'qish hayotda muhim ahamiyat kasb etishini angladim, – deydi 2-bosqich o'quvchisi Oq'abek Anorqulov. – Rosti, maktabda faqat darsliklar bilan chegaralanardim. Bu yerga kelganimdan keyin kitobga sho'ng'ib ketdim.



O'qishim, fanlarni o'zlashtirishim ancha osonlashdi. Litseyimiz kutubxonasida badiiy, ilmiy va huquqiy adabiyotlar ko'p. Ular doimiy ravishda boyitib borilyapti.

Qarshi shahrida tug'ilgan Jamshid havo desanti qo'shinlarida yigitlik burchini o'tab qaytgach, 1999-yilda ilk xizmat faoliyatini Qarshi shahar IIB Qo'riqlash bo'limi militsioneri lavozimida boshladi. Ustozi, iste'fodagi podpolkovnik marhum Bahrom Yoqbodan xizmat sirlarini o'rgandi. Zimmasidagi vazifalarni astoydil bajarishi bilan hamkasblari o'rta-sida e'tibor qozondi.

To'plangan kasbiy tajriba va malaka oradan ikki yil o'tib, viloyat IIB PPX va JTSB Patrul-post xizmati batalyonida samarali faoliyat yuritishiga zamin hozirladi. Bunda,

ayniqsa, murabbiylari – hozirda iste'fodagi podpolkovnik Abdisodiq Shodmonov, iste'fodagi kapitan Siddiq Jo'rayevning ko'magi, ko'r-satgan yo'l-yo'riqlari juda asqatdi.

IIB PPX va JTSB Konvoy guruhi haydovchi xodimi, serjant Jamshid Normamatov bugun yoshlarga ustoz. Safdorlar – Davlat Jumayev va Abbos Rasulov lavhamiz qahramonining shogirdi. Qolaversa, ukasi katta serjant Jasur Normamatov ham uning ortidan ketgan. U hozir viloyat IIB TVBSOda xizmat qilyapti.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

CHORAK ASR BIR SAFDA

Ichki ishlar organlarida xizmat qilish kishidan katta matonat va sabotni talab qiladi. Ana shunday inson kasbning mashaqqatli va sharaflı yo'lini bosib o'tadi. Tizimda ko'p yillardan buyon samarali faoliyat ko'rsatib kelayotgan serjant Jamshid Normamatov haqida ham shunday so'z yuritish mumkin.



Suratda: serjant Jamshid Normamatov (o'ngda) hamkasblari bilan.

O'quvchilar orasida qizlar salmog'i yomon emas. Shoira Qo'chqorova intiluvchan qizlardan. Ayniqsa, o'zbek tili va adabiyoti fanidan o'zlashtirish darajasi yuqori. Yaqinda u ushu fandan milliy sertifikatga ega bo'ldi.

Litseyda ma'naviy-ma'rifiy, ommaviy-sport va huquqiy-harbiy targ'ibot tadbirlari tez-tez uyushtiriladi. Masalan, zamonaviy sport zali, minifutbol maydonchasi, trenajyorlar navqiron avlod vakillari xizmatida. Joriy yilda litsey o'quvchilari bir necha nufuzli sport musobaqalarida sovrindor bo'lishdi. Xususan, voleybol bo'yicha o'smirlar o'rtasidagi viloyat chempionatida faxrli ikkinchi o'rinni qo'liga kiritishgan bo'lsa, dzyudo, taekvondo bo'yicha respublika musobaqalarida munosib qatnashishdi.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

XIZMATLARDA

QAT'YIYAT – ULARGA XOS

Sayyora (ismlar o'zgartirildi) endigina 20 yoshga qadam qo'ydi. Ammo hayotining eng go'zal, g'uncha misol barq urgan pallasida tubanlik ko'chasiga bosh suqdi. Jirkanch yo'llar bilan daromad topishni maqsad qildi. Hali balog'atga yetman tanishining tanasini pullab, mo'maygina mablag'ni qo'lga kiritish payiga tushdi. Bundan xabar topgan Jalaquduq tumani IIB Jinoyat qidiruv bo'linmasi tezkor vakillari zudlik bilan tadbir uyuştirdi. Jinoyat ishtirokchilari qo'shmachi va mijoz o'rtasida savdo kelishuvi ketayotgan vaqtida qo'lga olindi.

Ana shu tarzda joriy yilning dastlabki ikki oy davomida bo'linma tomonidan 18 ta jinoyat aniqlanib, fosh etildi. Jumladan, 4 ta fohishaxona tashkil etish, 5 ta giyohvandlik modalarini saqlash, 2 ta tovlamachilik, 2 ta tavakkalchilikka asoslangan qimor o'yinlarini tashkil etish, 2 ta kiberjinoyat, 1 ta noqonuniy yer oldi-sotdisi bilan bog'liq jinoyatlar. Jinoyatlarning ochilishida mayor Qobiljon G'afforov boshchiligidagi xodimlar baravar jonbozlik ko'rsatdi. Aslida, bo'linmadagi xizmat jarayonining mohiyati o'zarlo birdamlilikka asoslangan. Jinoyatni qidirish, aniqlash, fosh etish uchun ularning barchasi teng oyoqqa turadi. Chunki jinoyatchilik olamida kutilmagan holatlarga duch kelish odatiy hol. Jinoy shaxslar yoki to'dalar tomonidan qarshilik ko'rsatish, hayot uchun xavf tug'diruvchi xatti-harakatlarni amalga oshirish holatlari uchrab turadi.

– Kasbimizning eng asosiy jihat tezkorlik, – deydi bo'linma tezkor

vakili, katta leytenant S.Ismatov. – Jinoyatni o'z vaqtida aniqlashga harakat qilmasak, vaziyat izdan chiqishi mumkin.

Katta leytenant S. Ismatov IIV Akademiyasini tamomlab, bo'linmaga ishga kelganida 20 yosh edi. Unda sohaviy xizmat xodimiga xos tug'ma xarakter mavjud: qat'iyatlilik, uddaburonlik, ishni oxirigacha yetkazish. Jiddiyligi, sovuqqonligi ham ko'p hollarda yordam beradi. U jinoyatda gumonlanayotgan har qanday shaxs bilan vaziyatga qarab muloqotni yo'lga qo'ya olaadi. Bu borada Akademiyada olgan saboqlari, qolaversa, jamoadagi yoshi ulug', tajribali hamkasblaridan bilmaganlarini o'rganib borishi qo'l kelmoqda.

Jalaquduq Andijon viloyatining shimoli-sharqida joylashgan. Bugun hududda aholi tinch-osuda hayot og'ushida. Agar qandaydir huquqbazarlikka duch kelishsa, ularni qonun yo'li bilan himoya qiluvchi oso-



yishtalik posbonlari bor. Amalga oshirilayotgan turli profilaktik tadbirlar, xodimlarining o'z vazifasiga mas'uliyat bilan yondashuvi ortidan tuman-dagi jinoyatchilik ko'rsatkichi o'tgan yilning shu davriga nisbatan sezilarli darajada kamaygan.

– Sinchkovlik birinchi galdag vazifa, – deydi katta leytenant Iftixor Muqimjonov. – Kasbimiz taqozosi bilan hayotda sabr-bardoshli bo'lishni, har qanday inson bilan til topisha olishni o'rgandik.

Bo'linma vakillari – kaptitanlar Olimjon Yigitaliyev va Muzaffar Sheraliyev ham tezkor tadbirlar-da kasbining asosiy qoidalari hisoblangan aniqlik va hushyorlikni ko'zdan ochirmaydi.

**Nigoraxon
ТО'ХТАМОТОВА,
о'з мұхбіріміз.**

Andijon viloyati.

ХОТИРА

2009 йилнинг баҳори эди. Ўғлим Шерзоджон Низомов навбатчиликни топшириб, хизматдан уйга қайтаётганда автоҳолакатга учраганини эшишиб, юрагимдаги ҳамма томирлар узилиб кетгандай бўлди. Касалхонага қандай етиб борганлигимни билмайман. Шифокорлар қанчалик уринмасин, боламни сақлаб қолишолмади. Ҳеч ким дилбандига мотам тутмасин экан...

Фарзандим билимли эди, шунинг учун Жizzah давлат педагогика инститututini тамомламасдан туриб, ўзи ўқиган макtabga iшга олишибди. З йил ўқитувчилик қилди ва бир куни кутилмаганда «Ички ишлар органлари ходими бўлмоқчиман, қарши эмасмисиз?», деб сўради. Очифи, озроқ иккиландим. Назаримда, ўғлим кўнгилчан, содда эди.

Аmmo uning кўзларидағи қатъиятни кўриб рози бўлдим. Балки ҳаётning ўзи уни пишитишига ишонгандирман. Қисқаси, Жizzah вилояти Ички ишлар бошқармасига ҳужжатларини топшириб, синовлардан

ЎҒЛИМНИ СОҒИНГАНИМДА...



муваффакиятли ўтди. Кейин ИИБ Акademiyasi қошидаги сержантлар таркибини тайёрлаш олий курсида ўқиди.

Ана шу ярим йил фарзандимни буткул ўзгартирди, у жиддий ва салобатли бўлиб қолганди. Энгина ярашиб турган формани кўриб, оиласиз аъзоларининг қалбини фарҳ хисси тўлдирди. Ўғлим дастлаб Paxtakor tumani, сўнг Arnasoy tumani

ИИБ ёнғин хавфсизлиги тизимида фаолият кўрсатди. Бўш вақти кам бўлишидан хизмати оғирлигини ҳис килардим. Яна шуни сезардимки, у яхши ходим бўлишга астойдил интиларди.

Болам вафот этганидан сўнг мен учун ҳаёт тугагандек туюлди. Анча вақтгача ўзимизга кела олмадик. Айниқса, онаси эзилиб кетди. Undan қолган икки фарзанд-

гина кўнглими изолаган зулматни куварди. Набирам Шоҳжаҳон Исломов отасининг изидан бориша астойдил ҳаракат қилди. Шу мақсадда ИИБ «ЖАР» спорт-соғломлаштириш мажмуси қошидаги ҳарбийлаштирилган макtab-интернатда, кейин Темурbeklar maktabida ўқиди. Бўйининг бироз пастлиги сабаб, ИИБ Акademiyasiga кира олмади.

Шу боис Тошкент шарқшунослик инститutuning жаҳон сиёсати йўналишида таълим олди. Айни вақтда Курилиш ва уй-жой коммунал ҳўжалиги вазирiligi ҳузуридаги техник меъёрлаш ва стандартлаштириш имлмий тадқиқот инститutuning халқaro aloқалар ва marketting бўлими boшлиги. Шунингдек, Тошкent давлат юридик universiteti магистранти.

Отаси ҳаётдан кўз юмганида 1 ёшда бўлган иккичи набирам Низомжон эса, бу йил maktabni tugatib, mo-



лия ходими бўлмоқчи. Набирамнинг нияти ушалишига ишонаман, чунки астойдил ўқияпти. Ўғлимning турмуш ўртоғи Гулноза вилоят IIB Тиббиёт бўлимида ҳамшира бўлиб ишлади.

Болам ҳаётдан бўлганида бу йил 45 ёшга тўларди. Ўймининг бир хонаси деворлари Шерзоджонимнинг суратларини осиб қўйганмиз, анчагина буюмлари сақланаяпти у ерда. Bolamni соғинганимда шу хонага кираман...

Исломжон РАЙМЖНОВ.
Жizzah viloyati
Шароф Рашидов tumani.

«Mahalla – bu mehr va ahillik qo'rg'onidir. Mahalla – oqko'ngil, bunyodkor xalqimiz qalbining ko'zgusidir».

Shavkat MIRZIYOYEV

22-МАРТ – МАҲАЛЛА ТИЗИМИ ХОДИМЛАРИ КУНИ

«НАВРЎЗ»НИНГ ЖОНКУЯР ОҚСОҚОЛИ

(Давоми. Бошланиши 1-бетда.)

Айни кунда 5600 нафардан зиёд аҳоли истиқомат қилаётган «Наврӯз» маҳалласида савдо ва майший хизмат кўрсатиш шоҳобчалари, тикувчилик цехлари, новвойхона, автомашиналарга техник хизмат кўрсатиш устахонаси, ун ва шоли тегирмонлари ишлаб турибди. Маҳалла аҳли «Оғабек» тўйхонасини бунёд этган Ҳамдам Ниёзметов, аҳолига майший хизмат кўрсатишни йўлга кўйган Шоҳруҳ Эгамбердиев, тикувчилик цехларини ишга туширган Одилбек Нурметов ва Назира Жумагалдиевалардек химмати баланд тадбиркорлардан мамнун. Маҳаллада бундай тадбиркорлик субъектлари сони ортиб бораётгани боис, фуқароларни иш билан таъминлаш масаласи ижобий ҳал этилмоқда. Шунингдек, маҳаллада рақамили технологияларни кенг жорий этиш, асосий кўчалар, мактаб ва мактабгача таълим муассасалари, савдо ва аҳолига маданий-маиший хизмат кўрсатиш шоҳобчаларига видеокузатув камералари ўрнатиш ишлари босқичма-босқич амалга оширилмоқда.

– Маҳалламизга Ислом тараққиёт банки лойиҳаси доирасида 20 миллиард сўм маблағ ажратилди, – дейди лавҳамиз қаҳрамони. – Ушбу лойиҳа доирасида худудда 16 километр йўлни асфальт қилиш, 2,5 кило-

метр ичимлик суви қувурларини тортиш, 3 та трансформатор ўрнатиш, электр тармогини янгилаш ва бетон устунлар ўрнатиш режалаштирилган. Буларнинг барчаси аҳолимизнинг турмуш шароитини яхшилаш, ижтимоий-иктисодий соҳаларнинг янада ривожланишига хизмат қиласди.

Йигирма йил халқ осоииштагини таъминлашдек шарафли касбда самарали хизмат қилган истеъфодаги капитан Равшанбек Ёқубов узоқ йиллар йўл ҳаракати хавфсизлиги хизмати ва Ҳазорасп тумани ИИБ ҲПБда самарали фаолият кўрсатиб, бир қатор шогирдларнинг устози ҳамдир.

Айни кунларда маҳаллада баҳор ва уйғониш айёми – Наврӯз шукуҳи кезиб юрибди. «Яшил макон» умуммиллий дастури асосида кўча ва йўллар, томорқалар хас-чўплардан тозаланиб, мевали ва манзарали дараҳт кўчалари, ранг-баранг гуллар экилмоқда. Қозонларда баҳорнинг тансиқ таомлари пиширилиб, кўни-қўшниларга тортиқ қилингапти. Саховатпеша инсонлар қариялар, бокувчисини йўқотганлар, якка-ёлғизлар ва ногиронлиги бўлган фуқаролар ҳолидан хабар олиб, уларга моддий-маънавий ёрдам беришмоқда.

**Худойберган ЖАББОРОВ,
ўз мухбиришим.**

Хоразм вилояти.

Toshkent shahri. O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining tegishli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Olmazor tumanidagi kriminogen vaziyati og'ir bo'lgan 9 ta mahallada «Osyoishta mahalla» profilaktik tadbiri tashkil etildi.

Dastlabki tadbir «Shifokorlar» mahallasiда o'tkazilib, unga ichki ishlar organlari bilan bir qatorda, tuman hokimiyyati mas'ullari, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, Tibbiyat birlashmasi xodimlari va jamoat-chilik vakillari jalb etildi.

Firibgarlik, o'g'rilik va bezorilik jinoya-tining oldini olish borasida mahalla hududi bo'ylab aholi gavjum joylarida targ'ibot ishlari olib borildi. Bugungi kunning eng muhim masalasi bo'lgan bandligi ta'minlanmagan yoki doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan 41 nafar ishsiz fuqaro sharoiti o'rganilib, shundan 7 nafari



ish bilan ta'minlandi, 2 nafari o'quv kurslariga yo'naltirildi.

Spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki inson aql-irodasiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarga qaram bo'lib qolgan shaxslar bilan profilaktik suhbatlar o'tkazildi. Ajralish yoqa-

siga kelib qolgan va nizoli oilalarga birmabir kirilib, ular bilan tushuntirish ishlari olib borildi. Uzoq muddat xorijda yurgan, iqtisodiy og'ir ahvolga tushib qolgan shaxslar hamda hozirda chet davlatida yurgan jami 70 nafar fuqaro bilan onlayn tarzda suhbat olib borilib, elektron bazaga joylashtirilganini ham alohida ta'kidlab o'tish joiz.

Jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan va profilaktik hisobda turgan, qarovsiz hamda nazoratsiz qolgan voyaga yetmaganlar ahvoli o'rganildi. Mahalla hududida yong'in xavfsizligini ta'minlash borasida «xonadonbay» o'rganishlar tashkillashtirildi. Hududdagi 21 ta korxona va 5 ta xonardon qo'riqlash bo'limining texnik qo'riqlash markaziga ularib, bir nechta uy atrofiga videokuzatuv kameralari o'rnatildi.

Bu kabi tadbirlar poytaxt miqyosida davom ettirilmolqda.

**Sarvar SOBIROV,
ўз мухбиришим.**



KO'CHAT EK, BOG' YARAT!

Namangan viloyati. Uychi tumani IIB xodimlari tomonidan «Yashil makon» loyihasi doirasida ko'chat ekish tadbiri bo'lib o'tdi. Unda tuman IIB rahbariyati boshchiligidagi sohaviy xizmatlar xodimlari va profilaktika inspektorlari tomonidan 125 tup pavloniya, 45 tup archa, 120 tup mevali daraxt va 250 tup gul ekildi.

Yashil makon yaratish mahallalar va IIB xodimlarining xizmat uylarida ham tashkil etildi. Ekologik musaffolkni ta'minlash, tabiatni asrab-avaylash maqsadida ekilayotgan dov-daraxtlar uzoq yillarda yurtimiz ko'runga ko'rk qo'shishi shubhasiz.

O'z muxbirimiz.



MAHALLA TINCH – YURT TINCH



САЛОМАТЛИК САБОҚЛАРИ

ЧИА УРУГИНИНГ ФОЙДАСИ НИМАДА?

Бугунги кунда чиа уруғи ва унинг фойдали хусусиятлари ҳақидаги гаплар тез-тез қулоққа чалинмоқда. Аслида ушбу уруғлар қадимдан ишлатиб келинган бўлса-да, одамлар орасида унчалик оммалашмаган эди. Эндиликда кундалик озиқ-овқат маҳсулоти сифатида кенг фойдаланилмоқда.



Чиа уруғи танани кальций билан таъминлайди. Таркибидаги мавжуд фосфор асаб тизими учун фойдали ҳисобланади ва хотирани мустаҳкамлайди. Юрак фаолияти ва холестерин миқдорини пасайтириш учун зарур бўлган омега-3 ва омега-6 кислоталарига бой. Таркибидаги калий қон босимини меъёrlаштиради. Қондаги қанд миқдорини, умуман, эндокрин тизим фаолиятини барқарорлаштиради. Хўш, ўзи бу уруғни қандай истеъмол қилиш керак?

Аввало, уруғлар сувга бўктирилади, шундан кейин улар шишиб, желега ўхшаш массага айланади.

Эрта тонгда йогурт, смузи ёки ёрмаларга қўшиш учун туни билан музлатичга кўйиш тавсия этилади. Шунингдек, сувдан бошқа ҳар қандай суюқликка (масалан, кефир, сут, кокос ёки бодом сути, чой ва ҳаттоқи помидор шарбатига) қўшиш мумкин. Уруғларни суюқликка 1:4 нисбатда қўшиш лозим.

Бундан ташқари, уй шаротида ҳам турли пудинглар тайёрлаш мумкин. Масалан, бодом сутига уруғлар бўктирилади ва музлатичга кўйилади. Тайёр пудингга ёнғоқ, мевалар ёки асал қўшиб истеъмол қилиш мумкин.

Уруғлардан мураббо тайёрласа ҳам бўлади.

Бунинг учун таъбга кўра бирор мева блендерда майдаланади ва унга чиа уруғи қўшилади.

Сочларни бақувват қилишда ҳам чиа уруғи асқатади. Бунинг учун уруғни 25 дақиқа сувга бўктирилади. Гелга айлангач, З ошқошиб лимон шарбати қўшиб яхшилаб аралаштирилади. Мазкур коришма сочларга суриласди ва 10 дақиқадан кейин ювилади. Бу муолажа соч толаларининг қалин ва майнин бўлишини таъминлайди.

Чиа уруғлари қанчалик фойдали бўлмасин, зарари ҳам борлигини унумаслик лозим. Хусусан, у ошқозон-ичак тракти касалликлари, қон босими миаммолари ва аллергик реакциялари борларга тақиқланади. Шу боис уни истеъмол қилишдан аввал албатта шифокор билан маслаҳатлашинг.

Таъкидлаш жоизки, ижтимоий тармоқларда илиқ сув, чиа уруғи ва лимон сувидан иборат ичимликдан озганлар ҳақидаги видеоларга кўзимиз тушади. Бундай парҳезни диетолог маслаҳати ва тавсиясиз амалга ошириш салбий натижаларга сабаб бўлиши мумкинлигини унумтанди.

Адолат ФАЙЗИЕВА тайёрлади.

ИЛИК УЗДИ

Фасллар келинчаги баҳор палласида кўпчиликнинг ҳолсизланишини, толиқишини кузатишимиш мумкин. Бу қиши бўйи инсон организмидаги ҳамма витаминлар сарфлаб бўлинганини даради.

Витаминлар етишмаслиги сабабли киши эрталаб уйқудан туришни иста-



майди. Кўпчиликни ланжлик, уйқучанлик, диққат-эътиборнинг сусайиши, тушкунлик ва бош оғриғи қийнайди. Баъзиларда эса юз-қўл териси қуриб, ёрилиши кузатилади. Кўз тагида кўкимтир излар пайдо бўлади, кўриш қобилияти пасаяди. Соч тўкилади, тирноқлар мўртлашади. Шу сабабли бу даврда витаминлар, минераллар, озуқали моддаларга бой озиқ-овқатлар тановул қилиш лозим.

Хусусан, кўкатли таомлар, сабзавотлар истеъмол қилиш мақсадга мувофиқдир. Чунки улар таркибида организм учун зарур бўлган витаминлар, биофлавонидлар, антиоксидантлар мавжуд. Айниқса, исмалоқ, ялпиз, мадор, откул, жағ-жағ каби гиёхлардан тайёрланган таомлар, танада моддалар алмашинувини ва ошқозон-ичак тизими фаолиятини яхшилади.

Қишида заифлашган организм А, В, Д ва Е витаминларига муҳтож бўлганлиги сабабли уларнинг ўрнини тўлдириувчи ёнғоқ, майиз, бодом, гўшт, балиқ, қаймок, творог маҳсулотларидан тановул қилиш лозим.

Аксинча, баҳор фаслида цитрус мевалардан камроқ истеъмол қилган маъқул. Чунки табиат уйғониши, дарахтларнинг гуллаши натижасида аллергияга мойил бўлган инсонларда касалликлар қўзғалиши мумкин.

Гўзал ЖАФАРОВА тайёрлади.

ҚАЛАМПИР УМРИНГИЗНИ УЗАЙТИРИШНИ БИЛАСИЗМИ?

Дунёда таом ва егуликлар турфа хил бўлиб, уларга аччиқ қалампир қўшиб истеъмол қилиш фойдали ёки заарли экани борасида кўп қарама-карши фикрлар мавжуд. Баъзи одамлар қалампирнинг овқат ҳазм қилиш тизимиға салбий таъсир кўрсатишни таъкидласа, бошқалар унинг ўтқир таъмини қадрлашади ва танани мустаҳкамлашда ажойиб ёрдамчи, деб аташади. Буларнинг қай бири тўғри?

Таомномага аччиқ овқатларни киритиш керакми ёки улардан воз кечган маъқулми?

Қалампир нафақат иштаҳани очиб, таомга ўзгача маза беради, балки саломатлик ҳолатини яхшилайди ва иммунитетни оширади. Барча турдаги қалампир таркибида аскорбин кислотаси мавжуд бўлиб, у организмнинг ҳимоя кучларини фаоллаштиради ва шамоллаш билан курашишга ёрдам беради. Ушбу маҳсулот қонни тозалайди, ичак микрофлорасини нормалаштиради.

Аччиқ таом уйку сифатини ҳам яхшилайди. Танадаги ҳарорат таъсири мушакларнинг бўшашига олиб келади ва уйқусизликдан халос бўлишга ёрдам беради. Қалампир таркибидаги А ва С витаминлари қон айланисини яхшилаб, томирлар кенгайишига ва капилляр деворлари мустаҳкамланишига хизмат қилади. Бу эса, ўз навбатида, юрак-қон томир ти-

зими фаолиятига ижобий таъсир кўрсатади. Қалампир асаб тизими ишини меъёrlаштиради. Аччиқ таъсирида танада баҳт гормони (эндорфин) ишлаб чиқилади ва бу асабийлашиш, хавотирни бартараф этиб, стрессни осонгина енгишга ёрдам беради.

Аччиқ овқатнинг инсон организмиға фойдаси ва зарари ҳақида фикр юритар эканмиз, унинг қон босимини камайтириш ва ичақдаги паразитлардан ҳимоя қилиш қобилиятини ҳам таъкидлаб ўтиш жоиз. Бундан ташқари, қалампир овқат таъмини сезиларли даражада яхшилайди, бу эса умумий туз истеъмолини камайтириш имконини беради. У метаболизмни яхшилайди ва таркибида капсаицин бўлгани боис кўпроқ калория ёкишга ёрдам беради.



Бироқ ҳар нарсанинг ўз меъёри бўлгани каби, ортиқча истеъмол жигилдон қайнашига сабаб бўлиши мумкин. Қоннинг томирларда жўшиб оқиши эса ошқозон шираси ҳаддан зиёд ишлаб чиқилиб, ортиқаси қизилўнгачга отилишига ва ошқозонда ловуллаш ҳисси пайдо бўлишига олиб келади.

Капсаициннинг ҳаддан ортиғи юракка зарар етказиши ёки юрак

Тавсияларга амал қилишдан аввал шифокор билан маслаҳатлашинг.

ритмининг бузилишига (аритмия) сабаб бўлиши, бу эса салбий оқибатларга олиб келиши мумкин. Шунингдек, ярали касалликлар ёки панкреатит зўрайганда, жигар ёки буйраклар касалланганда, диабет ва аллергияга мойиллик кузатилганда, кўриш қобилияти билан боғлиқ миаммолар бўлганда, ҳар қандай аччиқ маҳсулотларни истеъмолдан чиқариб ташлаш тавсия этилади.

Гулчехра АЗИМОВА тайёрлади.

Безопасный туризм



СУРХАНДАРЬИНСКАЯ ОБЛАСТЬ. В нашей стране развитию сферы туризма уделяется особое внимание. Это способствует продвижению привлекательного имиджа Нового Узбекистана на мировой арене, повышению его авторитета и развитию экономики страны. Сотрудники Управления обеспечения безопасности безопасного туризма УВД Сурхандарьинской области добросовестно несут службу, за что получают благодарность гостей.

Соб. корр.



Соревнование интеллектуалов

АНДИЖАНСКАЯ ОБЛАСТЬ. В целях всестороннего развития молодых сотрудников, пропаганды здорового образа жизни, дальнейшего повышения интереса к интеллектуальным видам спорта в УВД области проведен турнир по шахматам.

По результатам соревнований, третьего места удостоен старший эксперт эксперто-криминалистической группы ОВД Кургантепинского района лейтенант Жахонгир Тухтаралиев, второго – старший эксперт ЭКГ ОВД Бустанского района стар-

ший лейтенант Мухаммад Абдурахмонов, а первое место занял инспектор профилактики ОПП СОБ ОВД Хаджаабадского района лейтенант Мухаммадсодик Йулдашбоев.

Победители и призеры отмечены дипломами и ценными подарками.

Мероприятия, направленные на повышение интеллектуального и профессионального уровня, а также духовно-нравственное воспитание молодых сотрудников, продолжаются.

Соб. корр.



МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(24 – 30 марта)



Қўй. Сиз учун ҳафта молиявий масалалар билан боғлиқ учрашувларга бой бўлади. Бироқ харид қилишдан олдин ҳамма нарсани инобатга олинг. Ҳисобли дўст айрилмас, деган нақлни эсдан чиқарманг. Якшанба куни кейинги ҳафтада қиладиган ишлар режасини тузмаган маъкул.

Бузоқ. Муаммоларни бартараф этиш тўғрисида кўпроқ бош қотиришга тўғри келади. Акс ҳолда бунинг оқибати салбий якунланиши мумкин. Бошқа ишларга имкон қадар ортиқча ҳаракат қилмаганингиз маъкул. Дам олиш кунлари маданий ҳордиқ чиқаришингиз сиз учун фойдали.

Эгизаклар. Иш жойингизда фикр-мулоҳаза билдиришдан олдин, яхшилаб ўйлаб кўринг. Ҳар қандай нотўғри сўз келгусида сизга қарши ишлатилиши мумкин. Ҳаётда ҳамон ёлғиз бўлсангиз, бўлгуси тақдир йўлдошингиз билан учрашувга тайёр туринг. Муҳаббат муносабатлари айнан шу ҳафтада ижобий кўриниш олади.

Қисқичбақа. Ҳафтанинг ilk кунлари сиз учун бироз оғирроқ келиши мумкин. Ҳавотирланманг, ҳафта ўрталарига бориб ҳаммаси жойига тушиб кетади. Яқин инсонлар билан янада диққатли муносабатда бўлинг, эҳтимол, уларга ёрдамингиз керакдир. Якшанбани хуш кайфиятда якунлайсиз.

Арслон. Ушбу ҳафта давомида дўстлар ва оила аъзолари ўртасида танлов қилишга тўғри келади. Табиийки, танлов яқинларингиз фойдасига бўлиши зарур. Фарзандлар ота-оналарининг сўзлари ва хоҳиш-истакларига қулоқ солгани маъкул. Шу йўл билан кўнгилсизликнинг олдини олиш ёки вақтида маслаҳат бериш мумкин бўлади.

Паризод. Ҳафта бошида ишларни бироз камайтириш мақсадга мувофиқдир. Ҳар бир ҳаракатингизни назорат қилинг. Ҳафта ўртасида кутилмаган янгилик эшитасиз. Шанбада уйингизга меҳмон келиши мумкин. Дам олиш кунларини табиат қўйнида ўтказиш саломатлигингиз учун жуда фойдалидир.

Тарози. Келаётган ҳафтада ишлар ўйлаганингиздек бир маромда кечмайди. Унутманг, эҳтиёткорлик кўпгина ташвишларни четлаб ўтишга ёрдам беради. Бу даврда саломатликка жиддий эътибор қаратинг. Ҳафта охирида молиявий ишларда омадингиз чопади.

Чаён. Бу ҳафта расмий ишлар учун жуда қулай палла. Бироқ ўзингизни кўп уринтирманг. Агар сабр-тоқатли бўлиб, киришимли эканлигингизни кўрсата олсангиз, пайшанбага бориб сизни қйнаётган барча масалалар ўз ечимини топади.

Ўқотар. Қанча кўп меҳнат қилсангиз, ҳамкаслар орасида шунча кўп ҳурмат ва эътиборга сазовор бўласиз. Эрталаб ишга вақтироқ келиш ёки кечқурун кечроқ кетишдан чўчиманг – барча саъ-ҳаракатларингиз мукофотини оласиз. Бироқ бу даврда оила аъзоларингизни ҳам унутиб қўйманг.

Тоғ эчкиси. Ижодий шижаот ишга бошингиз билан шўнғишига мажбур этиши мумкин. Ниманиндириқ қўл меҳнати ёрдамида бажариш зарур бўлса, буни ҳеч иккиланмай, албатта, амалга оширинг. Айнан ҳозир тўғри қарор қабул қилиш учун қулай даврдир. Даромад келиши аниқ бўлса-да, пулларни бехуда сарфлашдан қочинг.

Қовға. Бу даврда ҳамкаслар билан мунозаралар чоғида низога бормаган маъкул. Бу борада ён бериш кейинчалик ўз ижобий натижасини беради. Шанбада атрофинингиздагилар билан камроқ сұхбатда бўлинг. Дам олиш кунлари имкон қадар оила даврасида ҳордиқ олинг.

Балиқ. Ўз мавқенингизни мустаҳкамлаб олиш учун жуда қулай ҳафта. Агар иш борасида қатъиятли бўлсангиз, омад сизга кулиб боқади. Сешанбада дўстларингиз ёрдамига суюнишингиз мумкин. Жума куни янги ишларга қўл урмаганингиз маъкул. Якшанба – янгиликларга бой бўлади.

O'RIK GULLAGANDA...

Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanida «O'rlik gullaganda» II xalqaro yoshlar ijodiyot festivali bo'lib o'tdi.

Milliy urf-odatlarimiz va qadriyatlarimizi keng targ'ib qilish, ona tabiat va atrof-muhitni asrab-avaylash, yoshlar ongida milliy g'urur va vatanparvarlik xislatlarini yuksaltirish maqsadida tashkil etilgan ushbu tadborda xalq ijodiyoti namunalari, kitoblar, milliy liboslar va hunarmandchilik mahsulotlari kabi turli yo'naliшhاردаги ко'ргазмалар joy oldi. Dorbozlar, askiyachilar, oshpazlar o'z mahoratlarini

namoyish qilishdi. Xalq dastalari, madaniyat uylari ansamblari, xushovoz xonandalar ijrosidagi kuy-ko'shiqlar ko'ngillarga bahoriy kayfiyat ulashdi.

Festival doirasida bahor mavzusidagi rasmlar tanlovi, «Non - rizq-ro'zimiz» shiori ostida ko'rgazma, farg'onacha palov pishirish musobaqasi, bolalar o'rtasida varrak uchirish belashuvi, milliy liboslar namoyishi o'tkazildi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



KASB FIDOYISI

QO'SHALOQ BAYRAM SHUKUHI



Bugungi lavhamiz qahramoni katta leytenant Navro'z Ko'chimov Navoiy viloyati IIB JXX Probatsiya bo'limida faoliyat ko'rsatadi.

Ayni paytda u bo'limning moliyaviy rejalarini bajarish uchun mas'ul. Shuning bilan bir qatorda vaqt topib, fuqarolarning moliya-iqtisod faoliyati bilan bog'liq murojaatlarini ham o'rganadi, ularga jo'yali maslahatlar beradi. Lavhamiz qahramoni probatsiya nazoratidagi mahkumlarning bandligini ta'minlash maqsadida korxona va tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qiladi. U joriy yilda 56 nafar mahkumni ishga joylashtirish uchun shartnomalar rasmiylashtirdi.

Bundan tashqari, hududiy ichki ishlar organlari probatsiya guruhlariiga uslubiy yordam ko'rsatishda ham faol.

Lavhamiz qahramoniga bejiz shunday ism qo'yilmagan, albatta. U 21-mart sanasida tavallud topgan.

— Oilamizda shu kuni qo'shaloq bayram. Onam «Sen tug'ilgan kuni tabiat ham go'yoki qish uyqusidan uyg'ongandi», — deydilar. Hayotda doimo yangi imkoniyatlar qidirishga, o'zimming bilim va malakamni oshirishga intilaman, — deydi katta leytenant Navro'z Ko'chimov. — Hamkasblarim «Sening isming «Navro'z». Shuning uchun doimo bayramona kayfiyatda, xushchaqchaq bo'lising kerak», — deyishadi. Men esa «Ha, lekin ba'zida Navro'z kuni havo bulutli bo'lishi, yomg'ir yog'ishi ham mumkin», — deb hazillashaman.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir
o'rinnbosarları

podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV
mayor Aziza BOHODIROVA

Navbatchilar

Sarvar SOBIROV
Radik TUMPAROV

Mas'ul kotib

Erkin SATTOROV

Sahifalovchilar

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbir

Abu KENJAYEV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

Tahririyat hisob raqami

h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot
va moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v

470010860262877031101179001

STIR 200637499.

«Kolorpak» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: 100206

Yunusobod tumani,

Yangishahar ko'chasi 1^h-uy.

Gazeta O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam

bilan ro'yxatga olingan.

Buyurtma №735.

Bosilish – ofset usulida.

Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma

taboq. 46328 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqt – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Tahririyatga kelgan qo'lyozma va suratlari egasiga qaytarilmaydi. Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart. Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

